

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Qo`lyozma huquqida

UDK-8

NOROVA NASIBA BAXTIYOR QIZI

**“KECHA VA KUNDUZ” ROMANINING MATNIY-
STRUKTURAL TAHLILI**

5A 120101– ADABIYOTSHUNOSLIK (O`ZBEK ADABIYOTI)
MAGISTR AKADEMIK DARAJASINI OLISH UCHUN YOZILGAN

DISSERTATSIYA

ILMIY RAHBAR:

G`.N.MURODOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

BUXORO - 2015

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Qo`lyozma huquqida
UDK-8

NOROVA NASIBA BAXTIYOR QIZI

**“KECHA VA KUNDUZ” ROMANINING MATNIY-
STRUKTURAL TAHLILI**

5A 120101– ADABIYOTSHUNOSLIK (O`ZBEK ADABIYOTI)
MAGISTR AKADEMIK DARAJASINI Olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Rasmiy hakamlar:

B.E.QILICHEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent (BuxDU)

A.XOLMURODOV,
filologiya fanlari doktori, professor
(NavDPI)

Buxoro – 2015

Ma'qullayman _____

Ilmiy rahbar: f.f.nomzodi,
dotsent

G`.N.Murodov

“ ” _____ 2013-y.

Tasdiqlayman _____

O'zbek filologiyasi
kafedrası mudiri v.b.

D.S.O`rayeva

“ ” _____ 2013-y.

BuxDU Filologiya fakulteti II bosqich magistranti Nasiba Norovanning **“Kecha va kunduz” romanining matniy-struktural tahlili** mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi ustida olib borishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan

TOPSHIRIQLAR JADVALI

№	ISHNING MAZMUNI	BAJARILISH MUDDATI	NATIJA
1.	MD mavzusini kafedra va fakultet kengashida tasdiqlatib olish va rejalarini rasmiylashtirish	2013-yil 26-noyabr	Ijro etildi
2.	Mavzu bo'yicha zaruriy ilmiy-usuliy materiallarni o'rganish	dekabr	Ijro etildi
3.	Ilmiy adabiyotlarni mavzu nuqtayi nazaridan o'rganish	yanvar-fevral	Ijro etildi
4.	Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash.	mart-aprel	Ijro etildi
5.	To'plangan materiallarni sistemlashtirish	may	Ijro etildi
6.	MDning 1-bobini tayyorlash	2015-yil yanvar	Ijro etildi
7.	MD ishining 2-3- boblarini tayyorlash va xulosalash	fevral-mart	Ijro etildi
8.	Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko'chirish	mart-aprel	Ijro etildi
9.	MDning borishi to'g'risida kafedraga hisobot berish	may	Ijro etildi
10.	Ishni ilmiy rahbar taqrizi bilan kafedraga topshirish	may	Ijro etildi
11.	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	may	Ijro etildi

Bitiruvchi kurs magistranti

N.Norova

Ilmiy rahbar

G`.N.Murodov

**Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti o`zbek tili va
adabiyoti kafedrasining 9-yig`ilishi bayonnomasidan**

K O`CHI R M A

Buxoro shahri

2015-yil 27-may

Qatnashdilar: kafedraning barcha a`zolari,
bitiruvchi magistrilar va ularning ilmiy rahbarlari

Kun tartibi:

**2013-2015-o`quv yillari uchun mo`ljallangan MDlarini himoyaga
tavsiya etish.**

Yig`ilishda II bosqich 5 A 120101- Adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyoti)
yo`nalishi magistranti Nasiba Norovanning f.f.nomzodi, dotsent G`.N.Murodov
ilmiy rahbarligida bajargan **“Kecha va kunduz” romanining matniy-struktural
tahlili**” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining yakunlanganligi to`g`risidagi
axboroti va ilmiy rahbar xulosasi tinglandi.

Ish yakunlanganligini inobatga olib, o`zbek filologiyasi kafedrasida yig`ilishi

QAROR QILADI:

1. II bosqich 5 A 120101- Adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyoti) yo`nalishi
magistranti N.Norovanning f.f.nomzodi, dotsent G`.N.Murodov ilmiy
rahbarligida bajargan **“Kecha va kunduz” romanining matniy-
struktural tahlili**” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi rasmiy
himoyaga tavsiya etilsin.
2. Bitiruvchi bosqich magistranti Nasiba Norovanning magistrlik
dissertatsiyasiga f.f.nomzodi, dotsent B.E.Qilichev rasmiy hakam etib
tayinlansin.

Yig`ilish raisi

Sh.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi

G.Y.Samandarova

**Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti O`zbek filologiyasi
kafedrasining 4-yig`ilishi bayonnomasidan**

K O` C H I R M A

Buxoro shahri

2013-yil 26-noyabr

Qatnashdilar: kafedraning barcha a`zolari
va I bosqich magistrantlari hamda ularning
ilmiy rahbarlari

Kun tartibi:

**2013-2015-o`quv yili uchun mo`ljallangan magistrlik dissertatsiyalari
mavzularining tasdig`i.**

Yig`ilish kun tartibidagi masala yuzasidan kafedra mudiri v.b. D.S.O`rayeva qisqacha hisobot berdi va yangi o`quv yili uchun mo`ljallangan magistrlik dissertatsiyasi mavzulari ro`yxati tuzilganligini, mavzularning dolzarbligini, takrorlanmaganligini, kafedrada tuzilgan maxsus komissiya ularni tekshirib chiqqanligini qayd etdi. Shundan keyin magistrlik dissertatsiyasi mavzulari ro`yxati yig`ilish kotibasi tomonidan o`qib berildi.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzularini tasdiqlash taklifini yig`ilganlar qo`llab-quvvatladilar.

O`zbek filologiyasi kafedrasini yig`ilishi

QAROR QILADI:

1. I bosqich magistranti N.Norovanning magistrlik dissertatsiyasi mavzusi **“Kecha va kunduz” romanining matniy-struktural tahlili**” etib tasdiqlansin.
2. I bosqich magistranti Nasiba Norovanning magistrlik dissertatsiyasiga f.f.nomzodi, dotsent G`.N.Murodov ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yig`ilish raisi

D.S.O`rayeva

Yig`ilish kotibasi

G.Y.Samandarova

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet: filologiya

Magistratura talabasi: Nasiba Norova

Kafedra: o`zbek filologiyasi

Ilmiy rahbar: f.f.dot. G`ayrat Murodov

O`quv yili: 2013-2014

Mutaxassislik: 5A 120101 -

Adabiyotshunoslik(o`zbek)

“Kecha va kunduz” romanining matniy- sutrukural tahlili

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi: “Adabiyot yashasa- millat yashaydi”,-degan edi buyuk adib Cho`lpon. Darhaqiqat, adabiyot xalqning ma`naviyatini uyg`otadigan, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni tiklaydigan, milliy o`zlikni anglashga yo`l ko`rsatuvchi o`chmas mashaldir. Adabiyotshunoslikda struktural metod asosan g`arb adabiyoti ixlosmandlari tomonidan o`rganilgan bo`lib, bu borada o`zbek adabiyotshunosligida struktural tahlillarga bag`ishlangan salmoqli ishlar amalga oshirilmagan. Shu ma`noda, biz Cho`lponning “Kecha va kunduz” romani misolida struktur tahlillarga bag`ishlangan ushbu ishimiz dissertatsiyaning dolzarbligini ko`rsatadi.

Ishning maqsad va vazifalari: “Kecha va kunduz” romanining sutrukural matniy tahlilini amalga oshirish ishning maqsadini tashkil qiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun mazkur romanni struktural metod asosida tekshirish vazifa qilib belgilandi.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Cho`lponning “Kecha va kunduzi” romani obyekтини tashkil etsa, uning predmeti esa asarning struktural tahlilidan iboratdir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Tadqiqotda erishilgan ilmiy yangiliklar quydagilarda o`z ifodasini topadi:

- hozirgi zamon adabiyotshunosligida “Kecha va kunduz” romanining yangicha talqini va uning ilmiy-nazariy ahamiyati struktur tahlil yordamida asoslab beriladi;
- ilk bor nasriy asar kompleks struktur yondashish orqali tahlil qilindi;

➤ “Kecha va kunduz” romanida qoʻllanilgan struktur unsurlar aniq fakt va misollar orqali ochib berildi.

Tadqiqot uslubi va usullari: Ushbu magistrlik dissertatsiyasida milliy istiqlol gʻoyasi va mafkurasiga yoʻgʻrilgan, adabiyot va sanʼat, uning bugungi kundagi oʻrni, eʼtiqod haqidagi Prezident I.A.Karimovning asarlari; adabiyotshunoslar R.Bart, D.Quronov, M.Xolbekov, U.Joʻraqulov, Q.Qahramonovning ilmiy izlanishi hamda nazariy xulosalari metodologik asos boʻlib xizmat qildi. Ishning maqsadi va vazifasi taqozosiga koʻra tahliliy, tavsifiy, qiyosiy usullaridan foydalanildi.

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dotsent Gʻ.N. Murodov

Magistratura talabasi:

N.B.Norova

REPUBLIC OF UZBEKISTAN

BUKHARA STATE UNIVERSITY

Faculty: philology

Student : Nasiba Norova

Department: Uzbek philology

Head of scientific work: Gayrat Murodov

2014 – 2015 years

Speciality: 5A 120101 – Literature(Uzbek)

ANNOTATION OF MASTER'S DISSERTATION

“Analyse text-structure of “Evening and afternoon “ ”

Actuality of the research theme. After independence liberty show the significance of the work for the current social life. President I. Karimov decided number of laws and decrees on about literature and art..

President I. Karimov wrote a work of the literature “Attention to the literature – attention the literature”. He attended learning again xx century literature. Writers of xx century : Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Maxmudxoja Behbudiy, Cho'lpon's plays were very excellent books. But they and their works weren't attended. So during the independence years their life and plays are learned again. This theme can be a basic expedient in investigating Cho'lpon's life and one of the works “Evening and afternoon” are learned again and is checked with structure..

The aim and the tasks of the research work. To define goal the following issues are set as the tasks of the research work:

- to study the main, unique features as well as origination of modernism;
- on this basis to define mutual relationship between modern and classic literatures;
- to observe classic symbols in this novel;
- to analyze by structure “Evening and afternoon”
- to analyze and compare eastern and western novels from ideological and artistic aspects.

The object and the subject of the research work. While the novels of Cho'lpon “Evening and afternoon” object of the research work, its subject analyse by metod structure.

The methodology and methods of the work. In this masters dissertation the works of the President I. Karimov which are enriched with the idea and ideology of national independence, art and literature, its current role, belief and spirituality, religion and culture serve as a main methodological basis. Moreover, Rolan Bart, Levi Strossworks and other specialists in literature such as A. Rasulov, Suvon Meli, Q. Yo'doshev 's compositions.

In order to reach the aim of the work artistic synthesis, analysis, comparative and classifying methods were

Scientific-theoretical and practical significance of the masters dissertation.

We can make use of the facts and views brought in the research work for conducting classes and creating methodical handbooks, dictionaries on literature in upper classes of secondary schools, vocational colleges, academic lyceums and higher educational institutions.

The structure and the volume of the masters dissertation. This masters dissertation consists of introduction, 3 chapterclusion and the list of used literature.

The results announcement. This theme was lectured at traditional 58-scientific- theoretical conference of professor and teachers as well as students devoted to "The year of healthy child" which was held among the faculties of Bukhara State University. In addition to this, a thesis and articles were published.

_____ G'.N.Murodov
_____ N.B.Norova

MUNDARIJA:

Kirish	3-9
I bob. Zamonaviy adabiyotshunoslikda strukturalizmning o`rni...	10-40
1.1. Adabiyotshunoslikda struktural metodning kirib kelishi va rivojlanishi	10-19
1.2. Rolan Bartning matniy-struktural ta'limoti.....	20-26
1.3. "Kecha va kunduz" matn maydoni sifatida.....	27-40
I bob bo'yicha xulosa	40
II bob. "Kecha va kunduz" romani badiiy matnidagi struktural belgilar	41-71
2.1. Paradigmatik munosabatlar.....	41-55
2.2. Sintagmatik munosabatlar.....	56-66
2.3. Binar oppozitsion belgilar.....	67-71
II bob bo'yicha xulosa	71
III bob. Badiiy matndagi kodlar	72-82
3.1. Matn tizimida kod.....	72-77
3.2. "Kecha va kunduz" romani matnidagi kodlar tahlili.....	78-82
III bob bo'yicha xulosa	82
Umumiy xulosalar	83-85
Ilova	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	86-89

Dissertatsiyaning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz mustaqillik tufayli jahonga yuz tutgach, ilm-fanni rivojlanishiga o'zgacha e'tibor bilan qarala boshlandi hamda bu maqsadni amalga oshirish uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratildi.

“Jamiyatda, uning taraqqiyotida ijtimoiy fanlarning o'rnini beqiyos. Ular odamning aqliy kamolotga erishuvida katta ta'sir kuchiga ega”.¹ Istiqlol yillarida barcha fan sohalarida bo'lgani kabi adabiyotshunoslik fani ham jadal suratlar bilan rivojlana boshladi. Ayniqsa, adabiyotshunoslikda struktural metodning kirib kelishi o'zbek adabiyotshunosligida ham yangicha tadqiq usullarining shakillanishida ahamiyat kasb etdi. Zero, Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tabirlari bilan aytganda: «Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarimiz, buyuk shoirlarimiz, buyuk ijodkorlarimizni muqaddas, pok ruhida tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa - millat yashaydi»². Darhaqiqat, adabiyot har bir insonning yurak-yuragiga kirib boradigan beqiyos tilsimki, uni faqatgina ruhiy tafakkur orqali his qilishimiz, rohatlanishimiz, quvonishimiz, achinishimiz, yig'lashimiz, nafratlanishimiz... mumkin.

Adabiyotshunoslikda badiiy asarni an'anaviy usulda bir necha tomonlama turli tadqiq (empeirik, distributive, qiyosiy, qiyosiy tipologik...) usullaridan foydalangan holda tahlil etiladi. Biz o'rganayotgan adabiyotshunoslikda struktural metodning kirib kelishi an'anaviylikdan chekinib, badiiy asarni yangicha tahlil qilish imkonini berdi.

Strukturalizm – yangi fan bo'lib, u XX asrning o'rtalarida Fransiyada vujudga kelgan. Keyinchalik esa boshqa G'arb mamlakatlariga tarqala boshlagan. Boshqa mamlakatlar qatori strukturalizm atamasi Sharq adabiyotida (o'zbek

1. Каримов И. А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пиروvard мақсадимиз. 8-том. – Тошкент, 2000. – Б.504

² Islom Karimov. «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch». T.. «Ma'naviyat». 2008. 139— 140-betlar.

adabiyotida) XXI asrning boshlarida Yevropa xalqlari adabiyoti ta'sirida kirib kela boshladi.

Strukturalizm atamasi asosan aniq fanlar (matematika, geometriya, fizika, kimyo...)ga nisbatan qo'llanilgan bo'lib, adabiyotshunoslikda struktur atamasining ishlatilishi aniq fanlarga xos unsurlarni ijtimoiy fanlarga yaqinlashtirishni ko'rsatadi.

Struktural metodlar yoki strukturalizm odatdagi filologik sohalardan quydagi xususiyatlari bilan farqlanadi.

- An'anaviy adabiyotshunoslik badiiy asar bilan shug'ullansa, strukturalizm esa badiiy matnni tadqiq etadi;
- Butunlay yangi usullar bilan ish ko'radi;
- Siyqasi chiqqan an'anaviy tahlillardan qochish. Masalan, oddiygina matematikada ishlatiladigan daftar varaqlarini ko'z oldimizga keltiraylik,

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

n'anaviy adabiyotshunoslik anashu matematik varag'ni yaxlitligicha badiiy asarning asos qismi qilib oladi. Strukturalizm esa-ana shu yaxlit varag'ni matn deb tahlil qiladi va har bir katak orasidagi aloqadorlikni alohida-alohida tadqiq qiladi. Masalan, 1 va 2, 2 va 3, 3 va 9, 10 va n kataklarda bir biri bilan bog'liq qanday ma'no munosabati borligini aniqlaydi. Garchi asar va matn orasida bog'liqlik bo'lsada, ular orasida jiddiy farqlar bor. Badiiy asar o'z muallifiga ega, muallif asar xo'jayini ijodkori hisoblanadi, badiiy asar moddiy qiymatga ega, u muayyan bir hudud doirasidagina bo'ladi, ya'ni bir joydan boshlanib, boshqa bir joyda yakun topadi, badiiy asarda hamma narsa (qahramon, portret, tabiat, joy...)

turg'un holatda bo'ladi, asardagi hech bir narsa o'zgarmaydi. Matn esa-muallifni inkor etadi. U o'z qonuniyatlari asosida yashaydi va harakat qiladi. Muallif matnga hech qanday tasir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Matn hech qanday moddiy shakl va qiymatga ega emas. Matn faqat tasavvurda mavjud bo'lgan hodisadir. Matnga moddiy qiymat berish ushlab ko'rish imkoniyati yo'q. Matn hech qanday to'siq chegarani bilmaydi. U har tomonlama bepoyondir. Matnning eng birlamchi va asosiy xususiyati uning doimiy harakatda ekanligida ko'rinadi. Matn harakati davomida yangidan yangi belgi va xususiyatlarga ega bo'lib boraveradi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Sutrukuralizm fanining paydo bo'lishi etnografiya, etnalogiya, psixalogiya, filologiya fanlarining izlanishlari samarasidir. Fransuz etnolog Klord Levi Stross tadqiqotlarida strukturalizmning poydevori yaratilgan. Bu olim Markaziy va Janubiy Amerika miflarini yig'ish bilan shug'ullangan. Undan so'ng yana bir fransuz olimi Rolan Bart zamonaviy asotirlar yaratdi. Bundan tashqari uning “Избрини работы”, “Поэтика и семиотика”, “Tillarning urushi”, “Muallifning o'limi”, “Matn lazzati”, “Bir hikoyaning struktural tahlili”, “Belgi tassurotining asaridan matn sari”, “Adabiyot va ramziy til”, “Mifologiyalar” asarlari ham bu fanning o'rganilishi uchun dasturulamal bo'lib kelmoqda. Bundan tashqari Mixayl Baxtinning “Polifonik taffakkur”, Jan Marining “Strukturalizm kalit”, Lokanning “Matnlar” kabi asarlarida ham struktur tahlillar o'rin olgan. Ushbu tadqiqotlar Yevropa struktur adabiyotshunoslari tomonidan yaratilgan.

Yuqorida aytib o'tkanimizdek, o'zbek adabiyotshunosligida bu fan XXI asrning boshlarida kirib keldi. Bu yo'nalishda biror bir yirik tadqiqotlar amalga oshirilmagan bo'lsada, turli maqolalar, tezislar chop etilib, bu boradagi izlanishlarning allaqachon boshlanganini ko'rsatadi. Hatto birinchi bosqich Adabiyotshunoslik(o'zbek) mutaxassisligi magistrantlari uchun “Adabiyotshunoslikda struktural metod” faning o'qitilishi ham o'zbek adabiyotshunosligida strukturalizmning rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratilganigan dalolat beradi.

“O`zbek tili va adabiyoti” jurnalining 2000- yilda keyingi sonlarida strukturalistik tahlillarga bag`ishlangan bir qancha izlanishlar nashr qilindi. Jumladan, G`ayrat Murodov, Qurdosh Qahramonov, Dilmurod Quronov, Suvon Meliyev, Muhammadjon Xolbekov, Uzoq Jo`raqulovlar kabi olimlar salmoqli ishlarni amalga oshirdilar.

2008-yil O`TAning 2-sonida chop etilgan Suvon Meliyevning "Strukturalizm va struktur tahlil" maqolasi, 2009 yil O`TAning 5-sonida struktur yondashuvlar aks etgan birvarakaiga ikki maqola Qurdosh Qahramonovning «Adabiy tanqidda struktur metod talqini» va G`ayrat Murodovning «Kecha va kunduz» romanida zamonaviy tafakkur in`ikosi», 2011 yil O`TAning 1-sonida Nafisa Aliyevaning «O`tkan kunlar»da psixoanalitik holatlar nomli, 2013-yil O`TAning 2-sonida Muhammadjon Xolbekovning «Rolan Bart va struktur adabiyotshunoslik» kabi maqolalari chop etildi. Dilmurod Quronovning “Cho`lpon nasri poetikasi” (Toshkent, “Sharq” 2004y) asarida ham bir necha o`rinlarda sutruktur qarashlarning borligini ko`rish mumkin.

Biz olib borayotgan mazkur tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, yuqoridagi olimlarning tadqiqotlaridan farqli o`laroq, “Kecha va kunduz” romanini struktural-matniy tahlilini noan`anaviy tarzda amalga oshiramiz.

Dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari – o`zbek adabiyotida ilk bor nasriy asar misolida struktur tahlilni amalga oshirish. Buni “Kecha va kunduz” romani misolida olib borish.

Yuqoridagi qo`yilgan maqsadga muvofiq ishda quydagi vazifalar bajarildi:

- Strukturalizmni fan sifatida shakillanishi va o`zbek adabiyotiga kirib kelishi bilan bog`liq qarashlarni umumlashtirib yoritish;
- strukturalizm asoschisi Rolan Bartning fanga qo`shgan hissasi aniq fakt va misollar orqali ochib berish;
- “Kecha va kunduz” romanini matn maydoni sifatida tahlil qilish;
- “Kecha va kunduz” romani badiiy matnidagi (paradigmatik, sintagmatik, binar opozitsion) belgilarni tadqiq qilish;

➤ “Kecha va kunduz” romani badiiy matnidagi (narrativ,xronologik,etnografik,jumboq...) kodlarni ochib berish.

Dissertatsiya tadqiqotining obyekti – Choʻlponing “Kecha va kunduz” romani tadqiqot obyekтини tashkil etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining predmeti – “Kecha va kunduz” romani matnidagi struktural belgilar, struktural kodlar va strukturual yondashuvlar tadqiqot predmeti sanaladi.

Dissertatsiya tadqiqotida qoʻllanilgan metodlar(usullar) – Mavzuni yoritishda kompleks yondashuv, strukturaviy, struktur-semantik, qiyosiy tipologik, distributiv, konseptual va funksional tahlil usullaridan foydalanildi.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi. Tadqiqotda erishilgan ilmiy yangiliklar quydagilarda oʻz ifodasini topadi:

- hozirgi zamon adabiyotshunosligida “Kecha va kunduz” romanining yangicha talqini va uning ilmiy-nazariyni ahamiyati struktur tahlil yordamida asoslab beriladi;
- ilk bor nasriy asar kompleks struktur yondashish orqali tahlil qilindi;
- “Kecha va kunduz” romanida qoʻllanilgan struktur unsurlar aniq fakt va misollar orqali ochib berildi.

Dissertatsiyaning amaliyotga joriy etilganligi. Tadqiqotda erishilgan ilmiy natijalar Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti professor oʻqituvchilar va talabalarga havola etib borildi va konferensiyalarda eʻlon qilingan ilmiy maqolalar hamda anjumanlarda qilingan maʼruzalarda mutaxassislar eʻtiboriga havola etib borildi.

Dissertatsiyaning nazariy ahamiyati. Dissertatsiyaning nazariy ahamiyati shundaki, u keyinchalik strukturializmni jahon va oʻzbek adabiyoti bilan mushtaraklikda oʻrganish borasidagi ilmiy izlanishlar uchun yoʻl ochadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati. Mazkur ishda keltirilgan dalillar va mulohazalar maktab, akademik litsey, kasb- hunar kollejlari, oiliy taʼlimning 4-bosqichi talabalari uchun “Yangi oʻzbek adabiyoti” va birinchi bosqich

Adabiyotshunoslik(o`zbek) mutaxassisligi magistrantlari uchun “Adabiyotshunoslikda struktural metod” faning o`qitilishida o`quv mashg`ulotlarini olib borishda qolaversa,kurs ishi,malakaviy bitiruv ishlarida ham muhim manba bo`lishi mumkin.Strukturalizm fanini rivojlantirish uchun o`quv uslubiy majmua,risolalar chop etishda manba vazifasini o`tashi mumkin.

**Dissertatsiyaning ishining sinovdan o`tishi.**“Sog`lom bola yiliga bag`ishlangan an`anaviy 58-ilmiy-nazariy anjumanda ma`ruza qilindi.

Nashr qilingan ishlar. Tadqiqotning asosiy mazmuni bo`yicha Respublikadagi ilmiy jurnallarda(3ta) maqola chop ettirildi va bittasi nashrdan chiqish arafasida.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi kirish, 3 asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, uning hajmi 89 bet, 17702 so`zni tashkil etadi.

I BOB ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA STRUKTURALIZMNING O`RNI

1.1 Adabiyotshunoslikda struktural metodning kirib kelishi va rivojlanishi

Strukturalizm –yangi fan bo`lib, u XX asrning o`rtalarida Fransiyada vujudga kelgan.Keyinchalik esa boshqa G`arb mamlakatlariga tarqala boshlagan.XX asrning 60-yillarida Rossiyada professor Lotman rahbarligida struktural markaz tashkil etilgan. Strukturalizm atamasi Sharq adabiyotida (o`zbek adabiyotida) XXI asrning boshlarida Yevropa xalqlari adabiyoti ta`sirida kirib kela boshladi. Strukturalizm atamasi asosan aniq fanlar (matematika, geometriya, fizika, kimyo...)ga nisbatan qo`llanilgan bo`lib, adabiyotshunoslikda struktur atamasining ishlatilishi aniq fanlarga xos unsurlarni ijtimoiy fanlarga yaqinlashtirishni ko`rsatadi.

Struktural metodlar yoki strukturalizm odatdagi filologik sohalardan quydagi xususiyatlari bilan farqlanadi.

1. An`anaviy adabiyotshunoslik badiiy asar bilan shug`ullansa, strukturalizm esa badiiy matnni tadqiq etadi.
- 2.Butunlay yangi usullar bilan ish ko`radi.
- 3.Siyqasi chiqqan an`anaviy tadqiqlardan qochish. Masalan, “O`tkan kunlar”ni strukrur tahlil qiladigan bo`lsak,unga matn sifatida qaraymiz.

Matn

Teranlik – kenglik – cheksizlik...

- 4.An`anaviy filologiya sohaslarida qat`iy ta`riflar ,qoidalar, jadval va sxemalar asosida ish ko`rsa,sujet voqealar tizimiga e`tibor qaratilsa,strukturalizmnda esa bunday ta`rif va tavsiflar yo`q.Bunda asosiy e`tibor matn mohiyatiga qaratiladi.

5.Strukturalizm da matn bo`laklari orasidagi aloqa bog`lanishlarga asosiy o`rin beriladi.Masalan,mashhur yozuvchi Chexov yozganidek: “Agar asarda bitta miltiqni keltirdingmi u ,albatta ,hech bo`lmasa bir marta otilishi kerak”.

6.An'anaviy adabiyotshunoslik asosiy e'tiborni muallifga qaratadi.Strukturalizm esa muallifni vaqtincha bo'lsada unutib,matn bilan shug'ullanadi.Matn doirasida muallifga o`rin yo`q.Badiiy matinda muallif undagi obrazlardan biri sifatida qatnashadi.Roviy-hikoyachi sifatida ishtirok etadi.

Badiiy matn strukturasi (tarkibi). Badiiy matnni tarkiblash tamoyillari

Badiiy matn tarkibi. Badiiy matn tarkibidagi ichki va tashqi jihatlar,matnning ichki qurilishi, shakl va mundarija unsurlari. Mundarija tarkibi: mavzu, g'oya, muammo (problematika). Badiiy shakl element (unsur)lari: obraz, syujet, kompozisiya va badiiy nutq. Har bir poetik elementning badiiy asar tarkibidagi o`rni ifoda etadi.

Badiiy matnning shakllanishidagi tashqi jihatlar: ijodkor dunyoqarashi, uslub, pafos, badiiy nutqning tashqi shakllanish usullari: vazn, qofiya, band (strofika) v.b.

Struktura va tizim. Tarkiblash jarayonining tizimli xarakteri. Badiiy asarni tarkiblashda uning jonli organizm ekanini unutmaslik kerak. Badiiy asarni tarkibiy tushunish tamoyillari.

Struktur poetikaning kategoriyalar tizimi. Struktur tahlil predmeti: belgi (znak) - mohiyat (znachenije) - ijodkor (qabul qiluvchi). Madaniyat – tabiat - kod (alohidalik).

Struktur tahlilgacha kechgan jarayonlar: o`qish, qayta o`qish, ayrim o`rinlarni ajratib o`qish, ajratilgan bo`laklarni yig`ib tasavvur qilish; mikrotahlil yoki badiiy asardagi ayrim unsurlar tahlili o`ziga xos tarzda belgilanadi .

Talqin (interpretasiya), tushunish yo`sini (traktovka) Deshifrovka (shafrlash - belgilash), rasshifrovka (shafrlangan modellarni ochish). Modellashtirish jarayoni. Modellashtirishda amal qilinadigan qonuniyatlar hisoblanadi.

Model nazariyasi va semiotika. Ijtimoiy hayotda semiotikadan foydalanish. Semiotika va kibernetika munosabatlarini o'rganish orqali struktur tahlilga kirishish. Badiiy tarkiblash jarayonida "belgilash" ahamiyatini kasb etadi.

Badiiy matnda timsollar tizimi

Timsol nazariyasi va timsolning badiiy matn tarkibidagi o'rni beqiyos. Badiiy matn yaxlit poetik timsol sifatida shakillanadi. Obraz (timsol) tushunchasining ikki tomonlama xarakteri mavjud. Badiiy matnning obrazlilik. Obrazlilik san'atning mohiyatini anglatuvchi omil ekanli, estetik tahlilda obraz (timsol)ning o'rni qanday? Badiiy asarning obrazlar olami. Badiiy obraz (timsol) turlari: kishilar, hayvonlar, tabiat va narsa-predmet obrazlari. Badiiy asarning bosh predmeti Inson shaxsi ekanligida ko'rinib turadi. Kishilar obrazlarini anglatuvchi poetik tushunchalar: personaj, qahramon, xarakter, tip. Tabiat obrazi (timsoli) peyzaj sifatida. Uning badiiy asar tarkibidagi vazifasi. Hayvonlar timsollarining hayotiy va majoziyligi. Narsa va predmetlar timsollari ramzni tashkil qiluvchi badiiy unsurlar sifatida. Poetik ramz tabiati va simvollar nazariyasi. Ramzchilik (simvolizm) va uning badiiy tahlildagi o'rni shuning uchun ham dimo ahamiyatga ega.

Badiiy matnda tarkibida timsol elementining vazifasi quydagicha. Timsol va model munosabati. Timsol dunyoni badiiy modellashtirishning ilk tajribasi sifatida qaraladi. Badiiy matnni modellashtirishda timsollarning o'rni struktural tahlilda poetik timsolning vazifasi hisoblanadi.

Badiiy matnni sathlar bo'yicha tarkiblash. Sath nazariyasi

Struktural tahlilda syujet va kompozitsion sath. Badiiy matn tarkibida sath tushunchasi. Sath va segment munosabati. Badiiy matnni sathlar bo'yicha tarkiblash tamoyillari. Segment va segmentlash jarayoni quydagicha.

Badiiy matnni sathlashda amal qilinadigan qonuniyatlar, sathlarni segmentlash tamoyillaridir.

Syujet sath tarkibi sifatida. Syujet turlari: xronikal va konsentrik syujetlar. Syujet element (unsur)lari: ekspozisiya, tugun, yechim, voqealar rivoji, kulminasiya, yechim, prolog va epilog. Ularning sathlash jarayonidagi ishtiroki.

Syujet va fabula munosabatlari, fabula tarkiblash jarayonidagi tayanch unsurlardan biri ekanligidir.

Motiv va syujet munosabatlari. Motiv segmentlash usuli sifatida. Kompozisiya tushunchasi va uning struktural tahlildagi o'рни. Badiiy asar kompozisiyasi uning tashkillanishida amal qilinadigan unsurlarining yig'indisi sifatida ishtirok etadi. Kompozitsion sath tarkibida tasviriy va tavsifiy detallar, qahramon tavsifi bo'ladi.

Kompozitsion sathda syujet va uning unsurlarning qurilishi. Motiv, fabula va syujet munosabatlarida kompozisiyaning yo'naltiruvchi va qoliplovchi xususiyatlari. Lirik va epik asarlar kompozisiyasini tashkil qiladi. Syujetdan tashqari kompozitsion vositalar (lirik chekinish, kiritma epizod va obrazlar, qoliplovchi hikoya)larning struktural tahlildagi alohida o'rniga ega.

Tarkiblash jarayonida kompozitsion sathning shakllanishida amal qilinadigan qonuniyatlar. Me'yor va muvofiqlik qonuniyatlaridir inobatga oladi.

Struktural tahlilda badiiy nutq. Badiiy asarda nutqning reallashuvi

Til va nutqning struktural tahlildagi o'рни. Badiiy nutqning o'ziga xosliklaridan biri shundaki, uning kommunikativ va organik xususiyati.

Poetik leksika: Ko'chimlar tasnifi va ularning tarkiblash jarayonidagi o'рни. Mumtoz adabiyotida poetik leksikaning xususiyatlari. Shu asosga quriladigan she'riy san'atlarda namoyon bo'ladi.

Poetik nutq intonasiyasi va fonetikasi, mumtoz she'riyatida intonasiya va ohangdorlik, shu asosga quriladigan san'atlarni yuzaga keltiradi.

Poetik sintaksis. Matnda gap va so'zning o'рни va ularning o'zaro munosabatini tekshiradi. Sintaksis poetik sath sifatida. Podtekst (matnosti) va kontekst (matnorasi) munosabatlari tahlil qiladi.

Ritmika va badiiy nutq maromiyligi

Ritm tushunchasi va maromiylilik. Tabiat va jamiyatda maromiylilik. Ritm va uning mumtoz adabiyotshunoslikda o'rganilishi esa, ritm, zarb, iyqo, xitoba kabi tushunchalar bilan bog'liq.

Badiiy nutqning maromiyligi, ritmik birliklar: ritmik aksent va ritmik pauzadir. Maromiylikka ko`ra badiiy nutq turlari: nasr va nazmni tashkil etadi.

Nasr ritmikasi. Ritmik aksent va sintagma asosida nutq qurilishidir. She`riy nutqda ritmning qo`llanishi, mumtoz va zamonaviy she`riyatda ritmik birliklar. Aruz va barmoq vazning tuzilishida ritmning o`rniga to`g`ri keladi. Hijo (bo`g`in), rukn (turoq) ritmik birlik sifatida qaraladi. Nutqning ifoda shakllari va adabiy turlar munosabati tahlillarning yuzaga chiqishida aloqadorlikda xizmat qiladi.

Struktural tahlil va adabiy tur va janrlar munosabati

Adabiy turni shakllantiruvchi omillar. Adabiy turlarga ajratish tamoyillari. Nasr va nazm adabiy tur emas, ifoda shakllari sifatida yuzaga chiqadi.

Epos, lirika, drama - asosiy adabiy turlar ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Adabiy turlarni qayta tasniflashga urunish, paremiya haqida tushuncha. Tur va janrlar o`zaro munosabati.

Adabiy tur poetik sath sifatida. Epos sathi va uni tashkillantiruvchi janrlar: epopeya, roman, qissa, hikoya, novella. Har bir epik janr tabiatiga xos xususiyatlarning struktural tahlilda aks etishi nazarda tutiladi.

Lirika poetik tur sifatida. Lirik janrlar tabiati. Turk (o`zbek) mumtoz lirik janrlarining nazariy asoslari. Adabiy nav`lar va sinflar haqida Shayx Ahmad Taroziy va Alisher Navoiy qarashlari. Lirik janrlarning struktural poetikadagi o`rni misolida bo`la oladi.

Liro-epik janrlar: doston, ballada va masal. Ularning struktural poetikadagi ishtirok etadi.

Drama va dramaturgik janrlar: fojia, drama va komediya. Dramaturgik janrlarning struktural poetikadagi o`rni. Drama poetik vaqt va «badiiy maqom» tushunchasi. Ularning struktural poetikaning tashkillanishidagi ahamiyati struktural tahlillarda namoyon bo`ladi.

Struktural tahlilida uslub va ijodiy metod munosabati

Uslub tushunchasining istilohiy jihatlar: badiiy asar uslubi, yozuvchi uslubi, uslubiy tendensiya, uslubiy yo'nalish, milliy uslub, zamon uslubi.

Badiiy matn uslubi. Matn uslubining tashqi va ichki jihatlar. Uslubiy tahlilda o'ziga xoslik badiiy mezon sifatida qaraladi. Badiiy asar uslubining tashkillanishida amal qilinadigan qonuniyatlar. Uslub va badiiy shakl elementlari. Uslubning mavzu, janr va vaznga ko'ra o'zgarishi yozuvchi mahoratini ham ko'rsatadi.

Yozuvchi uslubining shakllanishida ijodiy manera, ijodiy individuallik, iste'dod tabiati v. b. roli beqiyos.

Struktural tahlilda uslubiy tahlil sathlarini belgilash. Struktural poetikada badiiy uslubining shakllantirilishi muammolari. Poetik fikrning matnga aylanish jarayonida uslubning roliga bog'liq.

Metod tushunchasiga munosabat muammosi. Metod adabiy usul va uslublar yig'indisi sifatida Metod va metodologiya munosabatlari.

Struktural tahlilda badiiy asar metodi muammosi hamisha yetakchi o'rinlarda. Badiiy tarkiblash jarayonida metodning o'рни ahamiyatli.

Metod badiiy asarni shakllantiruvchi omil sifatida qaraladi. Metod va shakl munosabatlari haqida struktural poetika. Struktural tahlil jarayonida badiiy asar metodiga tayanish bosh masala hisoblanadi. Yuqoridagi unsurlar badiiy matnni struktur tahlil qilishda yetakchi hisoblanadi.

Strukturalizm qanday metod degan savol tug'ulishi tabiiy?

«Struktur so'zi narsa tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqlik ravishda joylashuvini anglatadi»¹. Oddiy kuzatishlarimiz asosida misol qiladigan bo'lsak, odam tanasining bosh qismidagi a'zolari og'iz (lablar), burun, ko'z, qosh, quloq, soch - barchasi Olloh taoloning inoyati ila sistemaga solinib, tartib bilan joylashtirilgan. Og'iz o'rnida ko'zni, burunni o'rnida quloqni tasavvur qila olmaymiz, biroq ular orasida ma'lum funksiyalarni bajarishda mushtaraklik bor,

¹ Мелиев С. Структурализм ва структур таҳлил ҳақида. –Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент. 2009. №2 Б 12.

biri ikkinchisini taqozo etadi. «Struktura ham sodda qilib aytganda, yuksak ichki tartib tarkibidagi intizomdir. U sistema tushunchasi bilan chambarchas bog`liq. Chunki struktura sistema qaror topishining tuzilishi va ichki shakli bo`lib, bu shakl mazkur sistema elementlari o`rtasidagi barqaror o`zaro aloqalarning birligi sifatida yuzaga keladi. Sistemaning o`zi esa o`zaro munosabat va aloqada bo`luvchi va muayyan yaxlitlikni, birlikni tashkil etuvchi elementlar to`plamidir»².

Struktural metodning vujudga kelishida asos bo`lgan qarashlar

XIX asrning boshlarida adabiyotshunoslikka mustaqil fan sifatida yondashuv Gerder ta`limoti: adabiyotshunoslikni falsafa yoki estetika tarkibida emas, jahon badiiyati xazinasini o`rganuvchi fan sifatida yondashuvdir. Mifologik (etnografik) maktab tomonidan badiiy asarning ibtidosi, birlamchi shakli folklor asarini tushunishga intilish bo`lsa, Mifologik maktabning vujudga kelishida Aka-uka Grimlar va U. Duglas ta`limoti ilgari surulgan.

A. N.Vesslovskiy tomonidan tarixiy poetika tomoyillarining ishlanishi,

A. N. Vesslovskiy “motiv” va “syujet” haqida. Syujet poetikasi va epitet nazariyasini ishlab chiqdi.

Nazariy poetika mustaqil ilm sohasi sifatida. R. Myuller, A. A. Potebnya qarashlarida psixologik talqin nazariy poetikaning asosi sifatida qaralishi, til va tafakkur birligi. Poetik asarning uch tarkibiy qismi haqida A. A. Potebnya ta`limoti bor.

Rus formal maktabi qarashlari vujudga keldi. Shaklshunoslik ilmining vujudga kelishida V. Shklovskiy, Eyxenbaum, V. Jirmunskiy qarashlari. Formal metod struktural metodga eng yaqin kelgan tahlil usuli sifatida. Shaklshunoslarning syujet va kompozisiya, fabula va arxitektonika haqidagi qarashlari paydo bo`ldi. Formal metod qarashlarining xorijga kochishi. I. Todorov, R.Yakobsonning poetika haqidagi ishlarida badiiy tahlil unsurlari. Ushbu tadqiqotlarning barchasi struktur metodning shakllanishi uchun poydevor vazifasini o`tagan.

Strukturalizm XX asrning o`rtalarida Fransiyada fan sifatida shakllandi. Keyinchalik qolgan G`arb mamlakatlariga tarqala boshladi. XX asrning 60 -

² Уша маколадан (12 бет)

yillarida Rossiyada professor Y.Lotman rahbarligida struktural markaz tashkil etilgan. Bu fanning asoschilari va rivojlanishi uchun hissa qo'shgan olimlar Klod Levi Stross, Rolan Bart tadqiqotlari va asarlari hozirgi kungacha dasturul-amal bo'lib kelmoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu fan o'zbek adabiyotiga XXI asrning boshlarida kirib kela boshladi. Strukturalizmning fan sifatida kirib kelishi, bu boradagi izlanishlarning, tadqiqotlarning boshlanishiga asos bo'ldi. Biz o'zbek adabiyotida strukturalizm tadqiqiga bag'ishlangan ishlarni «O'zbek tili va adabiyoti» jurnalida chop etilgan olimlarning maqolalari misolida ko'rib o'tmoqchimiz. Bu borada G'ayrat Murodov, Qurdosh Qahramonov, Dilmurod Quronov, Suvon Meliyev, Muhammadjon Xolbekov, Uzoq Jo'raqulovlar salmoqli ishlarni amalga oshirdilar.

2008-yil O'TAning 2-sonida chop etilgan Suvon Meliyevning "Strukturalizm va struktur tahlil" maqolasida fransuz olimlari R.Pento va M.Gravitsining «Ijtimoiy fanlar, metodlar» kitobida struktur tushunchasi va uning turli fanlar matematika, tilshunoslik, etnologiya, psixologiya, ijtimoiy psixologiya, iqtisod, sotsiologiyada qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumotlar berilib, kitobda struktur tushunchasini quyidagicha ta'riflaganini yozadi. «Biz shuning uchun struktura atamasining tarafdorimizki, u juda ma'nodor va ijtimoiy fanlarning hozirgi holati uchun namuna. Fizika, biologiya, psixologiya so'ngi yillardagi rivojida biz chuqur o'xshashliklar ko'ramiz. Bu o'xshashliklar voqelikka, sof tahliliy yondashuvchi eski pozivistik konsepsiyalardan barcha elementlar majmuini o'zaro bog'liq munosabatlar va holatlarda qarab chiquvchi sintetik konsepsiyalarga o'tishda o'z ifodasini topadi, ya'ni ana shu struktura tushunchasini tashkil etadi»³. Bu berilgan ta'rifda xoh tabiiy, xoh ijtimoiy, xoh aniq fan bo'lsin, struktur atamasi o'ziga xos ma'no kasb etishi haqida to'xtanilgan. Yana bu maqolada Rolan Bartning struktur faoliyat qanday qoidalarga amal qilish haqidagi qarashlari, qadimgi yunon faylasufi Platonning "shakl" so'zini, "struktura" so'ziga salkam teng kelishi haqidagi fikrlari, badiiy asar strukturaviy mutanosiblikda hosil bo'lgan sistema ekan, u ham ichki tartib-intizomga, shakliy struktur belgi alomatlariga ega

³ Пэнто Р. , Гравитц М. Методи сом.наук. М., 1972, С.291.

bo'lmashligi mumkin emasligi, "Qur'oni Karim"dagi ilohiy tartib intizomga butkul mos kelishi haqida strukturalizmning eng o'jiz nuqtalari to'g'risida, strukturalizm asoschilaridan R.Yakobson Pushkin ijodiga bag'ishlangan struktur tahlillarida badiiy asarning ichki strukturasi asarning yetakchi struktur birliklari haqida batafsil fikr yuritilgan.

2009 yil O'TAning 5-sonida struktur yondashuvlar aks etgan birvarakaiga ikki maqola chop etildi. Qurdosh Qahramonovning «Adabiy tanqidda struktur metod talqini» va G'ayrat Murodovning «Kecha va kunduz» romanida zamonaviy tafakkur in'ikosi».

Q.Quronov maqolasida struktur tahlil metodi haqida to'xtalib, Abdug'ofur Rasulovning "Struktura va strukturalizm" maqolasi tahliliga kirishadi va A.Rasulov strukturaning janr, asar nomi va qahramonlar tasviri bilan bog'liqligi A.Oripov, T.Murod, U.Azim, Faxriyor, U.Hamdani asarlaridan olingan parchalar bilan asoslanganini yozadi. Struktur tahlil haqidagi qisqa ta'rifini keltiradi. «Strukturalizm - matnni o'qish, uqish, huzurlanish haqidagi fan. Strukturalizm talqin va tahlilning nozik go'zal yo'sini. Strukturalizm - modernizm mohiyatini ishonarli yoritib beruvchi vositadir», degan ta'rifini keltiradi. Hamda maqolada Hamidulla Boltaboyevning «Teranlik» maqolasidagi «Anor» hikoyasining struktur tahliliga bag'ishlangan struktur talqinni ko'rishimiz mumkin. Shu sonda chop etilgan keyingi maqola G'.Murodov bevosita struktur tahlilni Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani misolida talqin qiladi. Muallif "Kecha va kunduz"ning yetakchi va ikkinchi darajali personajlari roman badiiy syujeti chiziqlarida harakat etar ekan, ularning murakkab, ko'p qatlamli ruhiy olamidagi muallif (roviy)ga ham, qahramonlarning o'ziga ham bo'ysunmaydigan mustaqil qonuniyatlar, prinsiplar asosida rivojlanib boradigan oqim, to'lqinlar tufayli o'zliklarini, botiniy xususiyatlarini ko'rsatib, oshkor etib borishini yozadi. Shuningdek, strukturalizm namoyandasi Rolan Bartning "Qahramon faoliyati, jismoniy va ma'naviy -psixik harakatlarni muallif (roviy) emas, badiiy matn strukturasi ichki, mustahkam oqimlari, qonuniyatlari, o'zaro munosabatlari belgilab, boshqarib boradi» degan

fikri bilan mustahkamlaydi. Struktur maydonning nafaqat gorizontal, shuningdek, vertikal jihatdan keng ekanligini qiyosiy tahlillar orqali yoritib beradi.

O`TAning keyingi yillardagi sonlarida ham struktur tahlillar o`rin oldi. 2011-yil O`TAning 1-sonida Nafisa Aliyevaning «O`tkan kunlar»da psixoanalitik holatlar» nomli, 2013-yil O`TAning 2-sonida Muhammadjon Xolbekovning «Rolan Bart va struktur adabiyotshunoslik» maqolalari chop etildi. Demak , xulosa qiladigan bo`lsak,badiiy asarni yangicha tahlil va talqin qilishga asoslangan Struktural maktab O`zbekistonda ham allaqachon shakllanib ulgurgan.

1.2 Rolan Bartning matniy-struktural ta'limoti

XXI asr –axborot texnologiyalari asri deb tan olindi. Ana shunday tezkor infarmatsiyalar davrida har bir soha o'ziga xos tarzda o'rganilib ,rivojlanib borayapti. Fan, sport, madaniyat, adabiyot...bo'lsin an'anayiv va yangicha yondashuvlar bilan rivojlanib ,jahonning ilg'or mamlakatlari qatori O'zbekiston ham o'z o'rniga ega bo'lmoqda. Xususan, adabiyotshunoslik borasidagi qarashlar, tahlillarda ham bir qator o'zgarishlar yangilanishlar yuzaga kelganligini ko'rishimiz mumkin. An'anaviy adabiyotshunoslik asosan badiiy matnni tadqiq etgan bo'lsa, strukturalizm tamoyillariga asoslangan adabiyotshunoslikning tadrijiy rivoji va tamoyillari fransuz olami Roland Bart tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan .

Rolan Bart(1915-1980) o'tgan asr Yevropa adabiyotshunosligida strukturalizm negizida shakillangan tanqid va tahlil yo'nalishning eng yirik namoyondasi sifatida tarixda qoldi. Zamondoshlari tomonidan Yevropa struktur adabiyotshunoslikning tamal toshini qo'ygan yalovbardor olim tarzida tan olindi. O'tgan asrning 60-yillarida Yevropa struktur adabiyotshunosligida “yorqin yulduz”ga aylandi.

Rolan Bart faoliyatini ikki davrga bo'lish mumkin. 1973 yilni buni oraliq chegarasi deb qabul qilsa bo'ladi. Sababi, shu yili uning “Matindan rohatlanish” nomli essesi nashr etildi. Ungacha Bart, agar o'zining tabiri bilan aytadigan bo'lsak, “tanqidiy til” bilan ish ko'rgan edi. Aynan shu davrda unga “strukturalizm darg'asi” degan nomni keltirgan tadqiqotlari yozilgan. Matndan rohatlanish” essesinde matn idrok etishning yangicha tamoyillari haqida mulohaza yuritiladi, eng muhimi ,matinni estetik nuqtayi nazardan baholash haqida fikr bildirib, asosan “hissiy idrok”ilgari suriladi. Bu esse Bart ijodida yangi bosqichni boshlab berdi. Muallif “ekspirissiv tilga” ko'proq murojaat qilishning afzal jihatlarini yorqin misollar orqali ifodalarkan, “hissiy hayajonga to'la til g'oyasi”ni keng targ'ib qiladi.

Bart o'zining keyingi – “Rolan Bart Rolan Bart haqida ”(1975), “Oshiqlar nutqidan parchalar”(1977), “Luyitsid kamerasi. Fotografiya haqida qaydlar”(1980)

kabi yangi ,subektivlikka yo`g`rilgan,his-hayajonga to`la,hattoki biroz shoirona uslubda bitilgan asarlarida ham o`zi haqida so`zlashga ,o`zining dunyoqarashi ,adabiyotni idrok etish qobiliyati xususida teran fikr-mulohaza yuritishga harakat qilganini kuzatamiz.Asli bolgariyalik bo`lgan,biroq Firansiyada yashab ijod qilayotgan faylasuf,semiotik olim,struktur adabiyotshunoslik nazariyotchisi Svetan Todorov fikricha,Bartning oxirgi ishlari diqqat markazida o`zi turarkan, demak,ular universal xususiyatga ega bo`lib,tor ijtimoiy qatlamga emas,balki keng kitobxonlar ommasiga mo`ljallangandir¹

Bart qalamiga mansub asarlar orasida faqat “Semiologiya asoslari” (1965) hamda “Badiiy matning struktur tahliliga kirishish”(1966) kabi asarlarini izchil tartibda yaratilgan deb qabul qilinib,osongina tasniflash mumkin.Bu asarda muallif badiiy matnning strukturaviy va semiotik tahlili tamoyillariga o`ziga xos kirish yo`lini taqdim etadi.Shuningdek,shivesariyalik olim,struktur tilshunoslik asoschisi Ferdenand de Sossyur (1857-1913)ning filologiya ilmiga oid atamalar majmui bilan tanishtiradi.XX asr tilshunoslik ilmining otasi deb e`tirof etilgan Ferdenand de Sossyur g`oyalari “Umumiy tilshunoslik kursi”(1916) deb nomlangan kitobida o`zining mukammal ifodasini topgan bo`lib,umuman olganda,o`tgan asrning ijtimoiy tafakkuriga sezilarli darajada ta`sir ko`rsatadi, eng muhimi, strukturalizmning paydo bo`lishi va rivojlanishida katta xizmat qildi. U “filologik tadqiqotlarning zamonaviy bosqichida badiiy matning struktur tahlil etishning asosiy moduli sifatida Lingivistikani qabul qilish eng maqbul yo`ldir ”²,- deb hisoblaydi.

Ferdenand de Sossyur g`oyalari tilshunoslik sohasida qanchalik qimmatli bo`lsa,Rolan Bartning ham g`oyalari adabiyotshunoslikdagi sutrukturalik qarashlarning shakillanishida poydevar vazifasini o`taydi.Ralan Bart yaratgan,asos solgan ushbu yo`nalish,ko`pchilik olimlarning qiziqishlariga sabab bo`lmoqda.Bu esa Bart uslubini, yozgan asarlarini o`rganish imkonini bermoqda. Ana shunday tadqiqotchilardan biri Muhammadjon Xolbekovdir.Uning “O`zbek tili va

¹ Todorov TZ.Le Dernier Barthes // Poetiques,1981,N47 P.326

² Barthes R.Fragmantes d'un discours amoureux.Paris,1997.P.430

adabiyoti” jurnalining 2013- yil 2 -sonida chop etilgan “Rolan Bart va struktur adabiyotshunoslik” maqolasida Bart hayoti va ijodiga oid qarashlar va qiyosiy tahlillar o`rin olgan. Bunday tadqiqotlar o`zbek adabiyotida struktur soha rivojida o`ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Rolan Bartni biz nafaqat asarlarni struktural tahlillarini ,balki ba’zi asarlarida strukturalistik qarashlardan chekingan, tanqidiy ruhdagi yondashuvlarni ham ko`rishimiz mumkin. Uning “Rasin haqida”(1963) kitobi, “C/3” (1970) asari, “Tanqid va haqiqat” essesi strukturalizm tamoyillariga asoslangan tadqiqotlarga mos keladi. Masalan, Jan Rasin(1639-1699) hayoti va ijodi haqidagi kitobda Bart o`sha davr adabiyotshunoslik ilmida keng tarqalgan pozivistik, ya’ni hamma haqiqiy, pozitiv bilimlar konkret fanlarning mahsulidir, falsafa esa bunday bilimlarni bera olmaydi, shuning uchun uning keragi yo`q, degan g`oyaga asoslanga suyektiv oqim, fikrlarga qarshi chiqib, “asar-belgi”ga qarshi “asar-mahsulot”ni qo`yadi. Bart mazkur kitobda Jan Rasin tragediyasining suyjeti va kompozitsiyalari tahlil qilishda strukturalizm tamoyillariga asoslangan binar (qarama-qarshilik) qolipidan foydalanishga urinarkan, bu qolpni Zigmund Freidning psixoanaliz konsepsiyasi zahirida asoslab beradi.

“C/3” essesi-intermatnlik nazariyasining dastlabki dasturi va badiiy asarni oststrukturaliz ruhida qayta tuzishning dastlabki namunasidir. Balzak (1799-1850)ning “Saratsin” nomli novellasini tahlil qilar ekan, asar matnini, ya’ni unda “iskanjaga olingan bepoyon matniy tarix”ni “ozodlikka chiqaradi” va Matnni so`zlashga majbur etadi. “Har bir matn-bu intermatn” - “iste`molda bo`lgan parchalardan to`kilgan yangi ma`ndir” qabilida fikr yuritadi. Matn asar ichiga yashiringan bo`lib, “o`qib chiqilgan, ko`z bilan ko`rilgan, hayotda bo`lib o`tgan, boshdan kechirilgan” voqea va narsalarni o`zida saqlaydi, bu sterefonik makondir, bu yerda son-sanoqsiz tovushlar-g`oya, mafkura, diskurs, janr va uslubga oid toposlar yangraydi va o`zaro chigallashib ketadi, degan fikrni bildiradi. Bu yerda Bart topos atamasiga alohida e`tibor bergan edi.

Topos (yunoncha topos-joy, atrof)-adabiyotshunoslikda ko`chma ma`noda ishlatilib, umumiy ma`noni, tor ma`noda esa adabiy qolip, ritorik savol,

umume'tirof etilgan fikr,turg'un so'z birikmasini, nutqiy ifodani bildiradi.Ushbu atamani dastlab fanga nems filologi,tarjimashunos va adabiyot nazariyotchisi Ernest Kurstiusning "Yevropa adabiyoti va lotin o'rta asri" asarida XIX asr adabiyotshunosligiga xos ritorik an'anaga ko'ra, topos umumiy maydon yo'nalishi adabiyotni takrorlab turuvchi mavzu(masalan, "Oltin davr", " Nuh to'foni") vositasida o'rganadi.

Bartning "C/3" essisini shartli ravishda strukturalizm ruhidagi asar deb qabul qilish mumkin,chunki Balzak novellasining syujet chizig'i jumlarlar konsturaksiyasiga tenglashtiradi va shu tarzda tahlilga tortiladi.Ayni paytda, matnning konkret tahlili ko'proq psixoanaliz tamoyillari bilan turfa rangga burkangan talqin yoki sharhni eslatadi.

Bartning dasturulamal deb e'lon qilingan tanqidiy ruhdagi "Tanqid va haqiqat" essesi ham adabiyotga nisbatan faqatgina strukturalizm nuqtayi nazaridan yondashish emas, balki an'anaviy akademik adabiyotshunoslikning asosiy tamoyillarini rad etishdek mazmun kasb etadi.Unda adabiyotga nisbatan fransuz "yangi tanqid"iga xos bo'lgan yondashishni, asarga nisbatan esa mustaqil va mukammal fenomenal bo'lgan qiziqishni kuzatish mumkin.

Bart haqida ko'pchilik adabiyotshunoslar isyonchi, tinib-tinchimas tajribakor, jasur va paradoksal tadqiqotchi, kutilmagan joyda hozir-u nozir ijodkor deb yozadilar.Darhaqiqat, u adabiyotga yangicha yondashish,tahlilda yangicha nuqtayi nazarlarni yaratuvchi olimdir.Uning yangi bir ijobiy hislati –hammaga ma'lum bo'lgan narsaga yangicha nazar bilan qarashdir.Doimo izlanish, yetishgan maqsaddan, erishilgan natijadan, qo'lga kiritilgan muvoffaqiyatdan qoniqmaslik - Bart fe'l-atvorining negizi hisoblanadi.U mavjud an'analarni buzib, xuddi jadidlar singari yangiliklar tarafdori edi.

Bugungi kunda Bart ijodini, ilmiy merosini kompleks tarzda o'rganish dolzarb masalaga aylangan.Lingivistika va adabiyotshunoslik borasida uning ishlari turganda,ko'plab tadqiqotlarning metadalogik bazasini Bartning ishlari tashkil qilgan bir paytda,nafaqat Fransiyada ,balki butun Yevropada olimning tadqiqotlariga nisbatan bildirilgan fikrlar,turli nuqtayi nazarlarni inobatga olgan

holda bitta savolga aniq javob bermog`i lozim: “Rolan Bart ilmiy merosini qanday andozada o`rganmoq kerak?”

1960-yillarda Rolan Bart semiotika bilan shug`ullanishni o`zining asosiy vazifasi deb bilgan edi. Sababi u “belgilardan foydalangan holda mumkin bo`lgan zamonaviy g`arb olamini har tomonlama ta`riflash,o`rganish semiotik tadqiqotchiga qo`l keladi”<sup>1</sup>,deb yozadi.Bart birinchi navbatda tildan tashqari belgilar sistemasining immanent (biror hodisaning ichki xususiyatiga xos bo`lgan,uning tabiatidan kelib chiqadigan)tahlili qiziqtirgan. Bu jihatdan Bartning “Moda sistemasi”(1967), “Belgilar imperiyasi” (1970) kabi risolalari muhim ahamiyat kasb etadi. Xullas,Bart badiiy matnni ikkilanmasdan,ortiqcha izohlarsiz belgilar sistemasiga qo`shib qo`yarkan, bu haqida “Yozuvchining nol darajasi” (1953)tadqiqotida batafsil fikr yurutganiga guvoh bo`lamiz.Semiotik olim sifatida Bart asosan badiiy matn polisemiyasi (ko`p ma`noligi) bilan shug`ullanganligi yuqoridagi “C/3” essesi misolida ko`zga tashlanadi.

Bartning strukturalizm tamoyillariga asoslangan izchil tadqiqoti deb fransuz yozuvchisi va faylasufi,tarixda,markiz de Sad nomi bilan mashhur Alfons Fransua de Sad(1740-1814) utopik sotsiolizm namoyondasi Sharl Pure(1772-1837) va katolik mazhabining avliyosi Ignasio de Loyola(1491-1556) hayoti haqida mulohaza yurutuvchi “Sad,Fure,Loyola”(1971)nomli kitobini ko`rsatish mumkin.Biroq bu asar omma e`tiborini qozona olmadi, chunki ushbu asarda bir-biridan farq qiluvchi uchta qahramon qarashlari birlashtirilgan edi. Shunday bo`lsada, Bart ular orasidagi mushtaraklikni topa oldi.Ularning har biri “yangi til kashfiyotchilari bo`lishgan”,-degan qarashni ilgari surdi.Bu tillar o`ziga xos xususiyatga ega –ular lingivistik ham emas,komunikativ ham emas.Ularning maqsadi muayyan ma`no anglatish yoki ma`lumot yetkazish emas, birdan bir maqsadi bilim berishdir.

Bir jihatdan ushbu fikr o`ta mavhum ko`rinadi.Chunki o`ylab qaraganda, badiiy matnni idrok qilishda konnotativ belgi va muayyan shaxsga mansub idiolekt jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi.Boshqacha qilib aytganda,Bart konsepsiyasiga

¹ Barthers R.structuralisme semiologie...//Les Lettres francaises,1968N1243.P.13

ko'ra badiiy matn madaniyatining "umumiy matosi"ga serjilo mayin ipdek qo'shilib ketadi,uning asosiy manbasi va o'qish uslubi mato yaratilganidan keyin ham ko'rinib turishi mumkin. Rolan Bart asarni mavzudan uzoqlashtirib,uning matnini ixtisoslashgan tilga aylantirish bilan mashg'ul bo'ldi.Shu tariqa mustaqillikka erishgan erkin tilBart fikr mulohazalari va izlanishlarining asosiy predmrti sifatida uning asarlarida o'zigagina tegishli yozuv atamasiga ega bo'lgan edi.Bu atamani yaratish va uni ilimga tadbqiq etishning o'ziyoq Bartni struktur adabiyotshunoslikning asoschisi sifatida tan oldirdi.

Bart har qanday adabiy shakl –asosiy ohang,tabir joiz bo'lsa,ma'naviy-ahloqiy mavzuni tanlash huquqini beradi,aynan shunday yozuvchi o'z individualligini ochiqdan-ochiq namoyon qiladi,aynan shunda egallagan pozitsiyasini tanlashini aytadi.

Bart yozuvning Tarix bilan chambarchars bog'liqligi xususida teran fikirlarkan,uning uchun badiiy makon va zamondan tashqari adabiy shakillar to'plangan xazina yo'qligini ta'kidlaydi.Yozuvchi bu xazinadan hech narsa tanlab ololmaydi, chunki, Bart fikricha asrlar osha to'plangan, ming yillik ijodiy jarayonda sayqallanib kelgan adabiy an'analarni rad etish mumkin emas, sababi, aynan adabiy an'analalar yozuvchi tanlovini belgilab beradi.Shu bilan birga,yozuv bilan tarix o'rtasida uzviy bog'liqlik ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, tub burulishlar sodir bo'lgan davrda yaqqol namoyon bo'ladi.Aynan shu davrda vujudga kelgan yangi tartib,tabiatdagi narsalarning mantiqiy joylashuvi ya'ni yozuv paydo bo'lishini qat'iy talab qiladi,ya'ni grammatikaga asoslangan yozuv ishlab chiqishni taqazo etadi. Demak, Rolan Bart uchun yozuv - bu o'ta muhim yoki benazir go'zallikni ifodalash vositasi emas,balki tadqiqot piredmetiga aylanishga loyiq, avtonom, mazmun-ma'noga ega qadriyatdir.

U 1977-yili Kollej de Fransdagi Adabiyot semiologiyasi kafedراسi mudiri lavozimini egallaganda o'qigan ma'ruzasi ("Adabiyot semiologiyasi kursiga kirish") nafaqat o'ttiz yillik ilmiy faoliyatning o'ziga xos yakuni, balki zamonaviy semiologiya fani rivojining istiqbol yo'llarini belgilab beruvchi dasturdek yangradi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Lekin ushbu dasturni bajarish uchun

Bartga vaqt yetmadi.Uning hayoti kutilmaganda adog`iga yetdi.1980 yili 25-fevral kuni Kollej de Fransdan uncha uzoqda bo`lmagan joyda Bart avtohalokatga uchraydi va bir oy o`tar-o`tmas, 27-mart kuni Pite-Sal`petrier kasalxonasining rionimatsiya bo`limida hayotdan ko`z yumdi.

Xulosa qiladigan bo`lsak, Bart qarashlari, ilgari surgan g`oyalari, fikrlari nafaqat Yevropa adabiyotshunosligida, balki o`zbek adabiyotida ham o`ziga xos o`ringa ega.Imoratni barpo etishda oldin mustahkam poydevor barpo etmoq darkor.Qachonki,poydevor mustahkam bo`larkan, uning ustida qad roslagan imorat ham mustahkam bo`ladi va asrlar davomida xizmat qiladi.Rolan Bart yaratgan adabiyotshunoslikdagi Strukturalizm poydevori ham mustahkamligi sababli unga “Donishmand Bart” degan unvonni olib berdi.

1.3 “Kecha va kunduz ” badiiy matn maydoni sifatida

Choʻlpon sheʼriyati 20-yillardayoq adabiy tanqidchilik diqqat markaziga tushib, keskin adabiy-mafkuraviy bahs munozaralarga sabab boʻlgan⁴ boʻlsa-da, uning nasriy ijodi eʼtibordan chetda qolib keldi. Agar "Kecha va kunduz" haqidagi kichkinagina informatsiya va "fosh etish" ruhidagi taqrizni⁵ aytmasak, adibning nasriy merosini oʻrganish, asosan, 1987 yildan keyin boshlandi. Hozirgi oʻquvchi Choʻlponning nasriy ijodi haqidagi ilk maʼlumotlarni adib nomini oqlash jarayonida eʼlon qilingan materiallardan olish imkoniga ega boʻldi⁶. "Kecha va kunduz" romani qayta eʼlon qilinganidan keyingina adibning nasriy asarlari tahliliga bagʻishlangan bir qator maqolalar⁷ eʼlon qilindi. Aytish kerakki, Choʻlpon romanining gʻoyaviy-badiiy xususiyatlarini umumiy tarzda tahlil qilishga qaratilgan mazkur maqolalarda mavzumizga bevosita aloqador oʻrinlar mavjud. Xususan, O.Sharafiddinov va R.Otaev maqolalarida «Kecha va kunduz» romanning syujet-kompozitsion qurilishi, undagi obrazlar tizimi, adibning xarakter yaratish mahoratiga oid mulohazalar bildirilganki, ular fikrga turtki berish jihatidan qimmatlidir. Shuningdek, O.Sharafiddinov va N.Karimovning ilmiy-ommabop risolalarida⁸ tahlilga tortilgan nasriy asarlar orqali oʻquvchini Choʻlponning badiiyat sirlariga oshno qilishga intilish borligini alohida taʼkidlash joizdir.

30-yillarga kelib Choʻlponda orqaga qarab siljish koʻrinadi. U zamonasozlik ruhida yoza boshlaydi. Ilgargidek yonib-kuyib yozolmaydi. Bu bilan uning ijodining uchinchi bosqichi boshlandi. Choʻlpon hayotining fojialarga, dramalar, haqoratlarga, xoʻrliklarga toʻla yillari boshlandi. U qand kasalligiga muhtalo

⁴ Қаранг: О.Шарафиддинов. Чўлпонни англаш.-Т.,1994; Б.Дўстқораев. Бир мунозара тарихидан//Шарқ юлдузи.- 1989.- N 6

⁵ Шарифиу Ж., Шарафутдинов О., Султонов Ю. "Кеча ва кундуз" ҳақида// Қизил Ўзбекистон.- 1937.- 6 авг.

⁶ О.Шарафиддинов. Ижод уўли// Ёшлик.-1987.-N10;яна: Чўлпоннинг ижоди уўли тўғрисида//Шарқ ушлдузи.- 1988.-N2; С.Аҳмедов. Машакқатли давр фарзанди//Совет Ўзбекистони санъати.-1988.-N 6;

Э.Каримов.Олисдаги ёркин юлдуз//Фан ва турмуш.-1988.-N 3 ва бошқалар

⁷ Б.Аҳмедов. Тонг қоронғусида//Ўзб.адабиёти ва санъати.-1988.-25 ноябрь;

⁸ О.Шарафиддинов. Чўлпон.-Т.,1991; Н.Каримов. Чўлпон.-Т.,1991

bo'ldi. Uning asarlarini bosmay qo'yishdi. Lekin shoirning ijod kuchiga qoyil qolishi kerak, ana shunday dahshatli muhitda ijod qilishdan to'xtamadi. 1935-1937 yillarda "Kecha va kunduz" romanini yozdi. "Kecha va kunduz" romanida ma'rifatparvarlik, jadidchilik va xotin-qizlar ozodligi g'oyalari nihoyatda qiziqarli syujet, drama unsurlariga boy uslub hamda to'laqonli insoniy xarakterlar yaratish vositasida ifodalangan edi. O'zining yuksak fazilatlariga ko'ra bu asar 30-yillar o'zbek nasrining jiddiy yutuqlari qatoridan o'rin oldi. Romanda aks ettirilgan voqea 1-jahon urushi endigina boshlangan kezlarda O'zbekistondagi viloyatlardan birida bo'lib o'tadi. Romandagi qahramonlardan birining: "Biz yaqindagina eshon to'poloni bo'lib o'tgan joydan uncha olisda emasmiz",- degan so'zlariga qarab, voqea Andijon viloyatining Dukchi eshon qo'zg'aloni bo'lgan Marhamat tumaniga yaqin bir joyda bo'lib o'tgan deb aytishimiz mumkin.

Bu davr o'zbek xalqining ikki tomonlama zulm ostida ezilgan davri edi. Mahalliy boylar bu davrda rus mustamlakachilari bilan og'iz-burun o'pishib, o'z xalqining tarixiy taraqqiyoti haqida emas, uni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy qoloqlikdan xalos etish to'g'risida emas, balki o'zlarining rohat-farog'atlari, moddiy farovonliklari haqidagina jon kuyuntirishar edi. Feodal tuzum va mustamlakachilik sharoitida xalq to'g'risida o'ylovchi, uning qiyin, mashaqqatli hayotini yaxshilash haqida qayg'uradigan biron siyosiy kuch mavjud emas edi. Yozuvchi ana shu tarixiy davrni badiiy tasvir va tahlil etish maqsadida asarni yozgan. Bu voqea Zebi timsolida ochib berishga qaratilgan. Asardagi voqealar ilk bahorda boshlanib, qish chillasida tugaydi. «Kecha va kunduz» romanniga "O'tkan kunlar darajasida" deb baho berilgan.

O'zbek adabiyotida keyingi yillarda Cho'lpon nasrini ilmiy asosda o'rganish, uning badiiy jihatlarini tadqiq etishga intilishning kuchayishi kuzatiladi. Xususan, M.Qo'shjonov Cho'lpon romanidagi obrazlar sistemasini qator o'zbek romanlari fonida ko'zdan keshirib, uning kompozitsion qurilishidagi o'ziga xos nuqtalarga diqqatni tortdi.⁹ S.Mamajonov esa "Kecha va kunduz"da hikoya qilishdan ko'ra ko'rsatish, "sahnaviylik" xususiyati ustunligini ta'kidlab

¹M.Кўшжонов. "Кеча ва кундуз" романида образлар тизмаси//Ўзбек тили ва адабиёти.-1992.- N3-4

ko'rsatdi.¹⁰ Aytish kerakki, mazkur ikki nuqta bizning "Kecha va kunduz" haqidagi qarashlarimizda ham muhim o'rin tutadi.

Cho'lpon "Kecha va kunduz" romanini 30-yillar boshida — adabiy tanqidchilikning o'ziga qarshi xurujlari yanada keskin tus olib, haybatli sud jarayonlarida navbat unga yetganligi ishora qilingan, tinchroq yashash va muhimi, omon qolish ushun Moskvaga borib yashashga majbur bo'lgan bir paytda yozishga kirishgan edi. Bu paytga kelib sho'ro hukumati har jihatdan mustahkamlanib ulgurgan, jamiki xunrezliklar — quloqlarni sinf sifatida tugatish deysizmi, ishlab chiqarishdagi zararkunandalarni fosh etish deysizmi, partiyani yot unsurlardan tozalash deysizmi... — bari ommaning rizoligi-yu qo'llab-quvvatlashlari ostida amalga oshiriladigan bo'lgandi. Bu paytga kelib bolshevistik mafkuraning imkoniyatlari shunchalar kengaygandiki, millionlab jonli guvohlar hayot bo'lganlari holda atigi o'n besh-yigirma yillik vatan tarixi qayta yozilayotgan edi. Bosh tarixshi Stalindan andoza olib yozilgan bu tarixga ko'ra: SSSR xalqlari ushun yagona to'g'ri yo'l—sotsialistik inqilob yo'li edi, zero, bu inqilobni davrning ijtimoiy-tarixiy sharoiti zaruriyat qilib ko'ygandi... inqilob arafasida bolsheviklardan boshqa birorta ham xalq manfaatlarini ko'zlagan firqa bo'lmagan, bo'lganlari o'zlarining tor sinfiy manfaatlari ushuninga kurashgan... Qo'qon muxtoriyatining asosiy maqsadi mahalliy xalqlarni qaytadan burjuaziya asoratiga solib bermoq edi... Jadidlar milliy burjuaziyaning yaloqxo'rlarigina edilar... Bosmashilarning asl niyati Turkistonni inglizlarga sotish edi... — tarix shu edi. Bu tarixga singishmay turganlar yo'qotila boshlagan, hozircha omon qoldirilganlari esa yaqin kelajakda mahv qilinajak edilar. Eng dahshatlisi — qo'lbola partada vujudi quloqqa aylanib o'tirgan bolakaylar voqea-hodisalarning jonli ishtirokshilari bo'lmish otalariga emas, ular sodir bo'lgan paytda ishtonini ho'l qilib yurgan, boshlang'ish ma'lumotni olishi bilanoq komsomol tomonidan tarbiya frontiga safarbar etilgan muallimlariga ko'proq ishonardilar... — Cho'lpon romanga qo'l urgan paytdagi vaziyat taxminan shunday edi.

7Д.Куროнов. "Кеча ва кундуз" романида характерлар психологизми: Ф.ф.н....дисс.-Т.,1992;
8С.Мамажонов. Чўлпоннинг насрий ижоди// Ўзбек тили ва адабиёти.-1991.- N 6

Tarix shu taxlit yuzsizlarcha soxtalashtirilayotgan bir paytda hayoti qil ustida turgan Cho'lpon o'tmish mavzusiga murojaat etdi, murojaat etganda ham bolshevistik mafkura ushun jondek muhim — inqilob arafasidagi Turkiston ijtimoiy voqeligini badiiy idrok etish-u tasvirlashga jazm qildi. Ravshanki, mavjud sharoitda Cho'lpon qarshisida tanlangan mavzuni badiiy talqin qilishning ikkitagina yo'li bor edi:

— birinshisi: o'tmishni bolshevistik mafkuraga mos tarzda tasvirlash, soxta tarixga badiiy illyustratsiya yaratishu bu bilan "xatolarini ishshi dexqon ko'nglidan" butkul ketkazish va, nasib etsa, yangi hukumatning o'z kishiliri qatoridan o'rin olishu azob-uqubatlardan birato'la qutulish;

— ikkinshisi: o'zi bosib o'tgan yo'lga yigirma yil yuksakligidan yana bir karra nazar solib, yurtining ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti tendentsiyalarini kuzatish, bu yo'ldagi chigalliklarni badiiy idrok etish-u o'zi anglagan haqiqatni boricha ko'rsatish va taqdirga tan berib, boshini ixtiyoriy ravishda kundaga qo'yish.

Xo'sh, Cho'lpon mavjud ikki yo'lning qay birini tanladi? Bizningcha, mazkur savolga javob berish ushun, avvalo, nima ushun Cho'lpon shu qaltis mavzuga qo'l urdi? Nima uchun mavzuning badiiy talqini uchun roman janri tanlandi? – degan bir-biriga uzviy bog'liq ikki masalani aniqlashtirib olish zarur. Ilgari aytganimizdek, Cho'lpon adabiy-ijtimoiy faoliyatining boshidanoq yurt ozodligi ishq bilan yashadiki, shu bois ham qator asarlarida o'zini oshiq sifatida talqin qiladi. Oshiq esa, M.Baxtin aytmoqchi, sevgisini undan ayrilganidan keyingina hissiy idrok etishi mumkin. Zero, faqat shu holdagina sevgisi uning uchun obyekt, estetik faoliyat predmeti bo'lishi mumkin. M.Baxtin fikricha, estetik yondashuv kishi o'z hayotiga o'zganing hayotiga qaragandek qaray olganidagina yuzaga keladi.¹¹ Bir so'z bilan aytganda, Cho'lpon ham o'z hayotini o'zgalar hayotiga aylantira oldi.

Bu narsa, ayniqsa, adabiyot tarixida yaqqol ko'zga tashlanadi. Misol tariqasida sovet adabiyotida urush mavzusining ishlanishini olib qaraylik. Bevosita urush paytida yozilgan asarlarda dushmanga nafrat, intiqom ishtiyoqi, kurashga

¹¹ Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. - С.99-101

da'vat motivlari ustunroq. Agar bu jihatni faqat "ijtimoiy buyurtma" bilangina izohlasak, yanglishgan bo'lib chiqamiz. Buni ijodkor ruhiyatidan kelib chiqib, ayni paytda **uning urushda va urushning uning vujudida** yashayotgani bilan izohlangani to'g'riroq bo'ladi. Zero, urush voqealaridan uzoqlashilgani sari u haqdagi asarlarda qo'yilgan muammolar ko'lami ham kengayib, chuqurlashib — uning mohiyatiga tobora yaqinlashib borilgani ham yuqoridagi fikrlarni quvvatlaydi.

Aytish kerakki, Cho'lponning ongli hayotidagi ilk bosqich — uning yurt ozodligi yo'lidagi urinishlari 20-yillarning o'rtalariga keliboq mantiqan nihoyalangandi. Demak, hayotining mazkur bosqichi uning uchun endi estetik obyekt, asar ushuni material bo'lishi mumkin edi. Cho'lpon endi yaqin o'tmishdagi hayotini o'zganing hayotidek kuzatish imkoniga ega edi. Biroq adibning Moskvaga jo'nashi-yu teatrchilik faoliyatiga berilishi, poytaxtning qaynoq madaniy hayotiga sho'ng'ishi mazkur materialning badiiy idrok etilishini kechiktirgan, aniqrog'i, buni zaruriyat maqomiga ko'taruvshi, ijtimoiy-shaxsiy zaruratga aylantiruvchi sharoit hali etilmagan edi. Ayni shu xil sharoitning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan dastlabki turtki sifatida adibning Moskvadan qaytishi arafasida boshlangan matbuotdagi siyosiy-adabiy kampaniyani ko'rsatish mumkin. Adabiy tanqidchiligimiz boshlab bergan mazkur kampaniyaning sho'qqisi, shubhasiz, 1927 yilning 4-5 oktyabr kunlarida o'tkazilgan respublika madaniyat xodimlarining II Qurultoyi bo'ldi. Professor O.Sharafiddinov topib aytganidek, Qurultoy Cho'lpon ustida "birinchi ma'naviy qatli om" edi¹². Darhaqiqat, millat dardi bilan yashagan bir shoirni shu millatning ziyoli vakillari "yo'qsil xalq shoiri emas", asarlarini "g'oyaviy jihatdan zararli" deb topsalar-da, Qurultoydan quvsalar — buni ma'naviy qatldan boshqasha atash dushvor. O'z-o'zidan ravshanki, bu narsa shoir ruhiyatiga og'ir zarba bo'lib tushdi, boz ustiga, u vaziyatning anchagina qaltis ekanligini ham teran his etadi. Shu bois ham Cho'lpon Qurultoy rayosat hay'ati nomiga "E'tizor" bitib, o'zining tushunmaslik orqasida yo'l qo'ygan xatolari — shu el, shu yurt dardi bilan yonib yashagani-yu kuylagani! — uchun uzrxohlik

¹² Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш.- Т.,1994.- Б.16

qilishga, "xatolarimni ish orqali ishchi-dehqon ko`nglidan ketkazaman " deya va'dalar berishga majbur bo`ldi. "Yer aylanmaydi!" deyishga majbur bo`lganidan so`ng o`z-o`ziga "har holda u aylanadi" deyolgan Galileyga o`xshatgimiz keladi. Shuning uchun ham bir she`rida "Kulgan boshqalardir yig`lagan menman" deb yozganida balki u haq edi.

Modomiki, "Kecha va kunduz"ning yozilishi ichki ehtiyoj bilan bog`liq ekan, Cho`lponning yuqorida aytganimiz ikki yo`lning birinchisi — qalamga olingan davrni rasmiy mafkuraga moslab talqin qilish yo`lidan borishi mumkin emas: bu holda ehtiyoj qondirilmaydi. Ikkinchi tomondan, Cho`lpon romanini "g`alayon" uchun ham yozmoqchi emas, — u o`zining dardlarini o`quvchisiga etkazishni, o`zi inkishof etgan haqiqatlardan unida voqif qilishni istardi. Zero, adibning grajdanlik hissi qalbida so`nayo`zgan kurash olovining cho`g`larini o`zga qalblarga ko`chirish majburiyatini yuklardiki, o`z ichki ehtiyojini qondirish bilangina qanoatlana olmas edi — bunday qilishga haq emas deb bilardi o`zini. Ijod erkinligi bo`g`ilgan sharoit roman ustida ish boshlagan Cho`lpon qarshisida g`oyat murakkab ijodiy muammoni ko`ndalang qilib qo`ygandi: adib o`zi anglagan haqiqatdan chekinmagani holda uni shunday ifodalashi ham zarur ediki, — avvalo, asarni chop etish imkoni bo`lsin, ikkinchidan, mafkura og`usiga to`yingan kitobxon ham, mustaqil mushohadaga qodir o`quvchi ham undan o`ziga kerakli ma`noni topa bilsin. Bir qarashda mazkur hol Cho`lponning she`riy va kichik nasriy asarlarida kuzatganimiz ramzli ifoda yo`siniga o`xshasa-da, haqiqatda undan jiddiy farqlanadi. Ma`lumki, badiiy asar mazmuni ko`p qatlamli hodisa bo`lib, ulardan ikkitasi — aktual va tub estetik qatlamlar universal xarakterga ega. Aktual qatlam deyilganda asarning ijtimoiy-siyosiy mohiyati tushuniladiki, u bevosita asar yaratilgan davrning ijtimoiy-siyosiy maqsadlariga qaratiladi. Tub estetik qatlam esa asar yaratilgan davrgagina qaratilgan emas — u davr kontekstidan ayro holda ham tushunilaveradi. Odatda aktual qatlam yuzada bo`ladi, shu bois ham ba`zan asar yaratilgan davrda o`quvchilarning tub estetik qatlamni ilg`ab olishlariga, uni munosib baholay olishlariga halal berishi ham mumkin. Cho`lponning ramziy she`rlarida, xususan, alohida to`xtalganimiz "Yo`l esdaligi" safarnomasida

aksincha holga duch kelamiz: ularda tub estetik qatlam aktual mazmunni pardalaydi go'yo. "Kecha" romanida esa aktual qatlamning o'zi ikkiga ajratiladi: birinchisi —yuzadagisi, qizil ko'zoynakli kitobxon uchun; ikkinchisi — tubdagisi, xos o'quvchi uchun mo'ljallangandir. Albatta, mazkur farq avvalo realistik roman janri tabiati bilan bog'liq holda izohlanishi lozim. Zero, lirik xarakterdagi asarlardan farq qilaroq, romanda to'laqonli badiiy reallik yaratiladiki, u o'z holicha nisbiy mustaqil bo'lgani holda "gapira oladi", ya'ni, ijodkor subyektidan ayro holda ham muayyan mazmunni ifodalay oladi. Demak, adib o'zi aytmoqchi bo'lgan gapni aytishning, aytishu yashirishning o'zgacharoq yo'llarini qidirishi lozim edi. "Kecha"da Cho'lpon qo'llagan ifoda yo'sinini biz "niqoblanish" deb atamoqchimizki, buning shartliligi o'z-o'zidan ravshan. Mazkur istilohni 30-yillar adabiyotshunosligidan o'zlashtirar ekanmiz, uni salbiy ma'noda qo'llash fikridan albatta yiroqmiz. Zero, 30-yillar adabiyotshunosligida niqobni ko'tarish adibni "fosh etish" maqsadiga xizmat qilgan bo'lsa, biz uni anglash, asar mazmuniga chuqurroq kirib borish uchungina niqobni ko'tarishga harakat qilamiz.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, "Kecha" ustida ishlayotgan Cho'lpon ruhiyatida "aytsam o'ldirarlar, aytmam o'lam" qabilidagi holat yuzaga kelgandi. Adib o'zi anglagan haqiqatlarni o'quvchiga etkazishni maqsad qilgandiki, buning ushuni u ansha murakkab ijodiy muammolarni hal qilishi zarur edi. Shuning natijasi o'laroq, bizningcha, "Kecha" romanining tashkillanishida ongning ishtiroki hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. E'tiroz tug'ilishi mumkin: nahotki Cho'lpon romanini yozish jarayonida shunchalik sovuqqonlik bilan, har jihatini "yetti o'lchab" ishlagan bo'lsa? Ijod onlarida san'atkor ruhiyat osmoniga ko'tarilmaydimi? Hamma narsani onga bog'lashlik badiiy ijod tabiatini jo'nlashtirish emasmi? Albatta, san'atning avvalo ruh mahsuli ekanligini inkor qilmaymiz, biroq epik tafakkurda ongning ishtiroki anchayin sezilarli ekanligi ham ayon haqiqatdir.

Cho'lpon "Kecha" romanining 1936 yil nashriga epigraf sifatida olgan M.Gorkiy so'zlari: **"Ma'rifat chog'ishtirib ko'rish orqali hosil bo'ladi, bizning yoshlar esa o'z ko'rganlarini hech nima bilan chog'ishtirolmaydilar, ular**

kechmishni bilmaydilar va shu uchun hozirgi zamonning nimaligini etarli darajada oshiq anglayolmaydilar".¹

Tabiiyki, sovet xalqining "dohiy"lari qatoridan joy olgan ulug` proletar adibining so`zlarini romanga epigraf qilib olinishining o`ziyoq nomi "qora ro`yxat"lar boshidan joy olgan Cho`lpon uchun shundog`am himoya vositasi, o`ziga xos ehtiyot chorasi bo`lib xizmat qila oladi. Biroq bu o`rinda ma`noning ikki yoqlama tushunilish imkoniyati borligi diqqatga molikdir. Ya`ni, Cho`lpon kechmishni yoshlar hozirgi zamonning qadriga yetsinlar, degan maqsadda tasvirlayotganini "sovet yozuvshisi" pozitsiyasida turib ta`kidlasa, soxta tarix miyasiga singdirilib manqurtga aylantirilayotgan yoshlar "hozirgi zamonning nimaligini yetarli darajada oshiq anglasinlar" uchun "Kecha"ni yaratganini GRAJDANLIK pozitsiyasida turgani holda aytadi. Ko`ramizki, epigraf tanlashdayoq Cho`lpon romanning mazmun strukturasi modelini shakllantiradi: o`zi aytmoqchi bo`lgan fikr tubda-yu, yuzadagisi faqatgina "niqob", — vosita, xolos. O`z-o`zidan tabiiy bir savol tug`iladi: xo`sh, Cho`lpon "yoshlar hozirgi zamonning nimaligini" anglasinlar uchun tasvirlagan o`tmish soxta tarixdan, rasmiy nuqtayi nazardan nimasi bilan farqlanar edi? Bizningcha, ikki oradagi tafovutlar romanning g`oyaviy mazmuniga bir nazar solinsayoq yaqqol ko`rinadiki, "Kecha" haqidagi qarashlarimizning shakllanishi va asoslanishida muhimligi vajhidan bu masalaga qisqacha to`xtalib o`tishimiz joiz. Ma`lumki, bolsheviklar inqilob arafasidagi Turkistonda asosiy ijtimoiy konflikt ezuvchi va eziluvchi sinflar orasida edi, deya zo`r berib uqdirayotgan edilar. Cho`lpon romanida esa, bunga zid o`laroq, asosiy ijtimoiy konflikt feodal asoslar bilan shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya orasida yotadi. Bu konfliktni adib Akbarali bilan Miryoqubning murakkab o`zaro munosabatlarini tasvirlash orqali mohirona ko`rsata bilgan. Akbaralining ham iqtisodiy va ham siyosiy no`noqligini, Miryoqubning esa, aksincha, har ikkisida ham omilkorligini tasvirlarkan, adib, bir tomondan, feodal asoslarning chirib bitganini, ikkinchi tomondan, **milliy**

¹Д.Куронов Чўлпон насри поэтикаси. Т: -"Шарк". 2004 89-бет

burjuaziyaning ham iqtisodiy va ham siyosiy istiqbolga egaligini ko'rsatadi. To'g'ri, Qumariqdagi isyon go'yo romanga biroz inqilobiylik olib kiradigandek. Biroq bu g'alayon ham Cho'lpon tasvirida bolsheviklar da'vo qilgan sinfiy kurashdan tamom boshqa narsa. Zero, dehqon-u kosiblarning g'azabi ezuvchilar sinfiga emas, **shaxsan** Yodgorxo'ja-yu **shaxsan** Umaraliboyga qaratilgandir. Albatta, bu sahnalarda Cho'lpon chin dildan mehnatkash xalq tomonida, insof-u adolat hissidan mahrum bo'lgan boylarni u ham qoralaydi. Lekin ayni chog'da ommaning qo'zg'alishi o'z haq-huquqlarini himoya qilib chiqqan ongli harakat emas, balki boylardan birining shaloqlik bilan "xotintaloqlar" deya haqoratlashi bilan boshlangan maishiy g'alayon ekanligini tasvirlaydi. Ya'ni, bu o'rinda adib ommaning sabr kosasi to'lganligini inkor qilmaydi, biroq bu g'azabning uyushtirilgan holda muayyan maqsadga yo'naltirilishi uchun hali sharoit etilmagan, deb hisoblaydi. Bolsheviklar o'z firqalarining inqilob arafasidagi faolligi-yu ommani kurashga uyushtirganini da'vo qilardilarki, yuqoridagicha tasvir bu da'volarni chippakka chiqaradi. Eng qizig'i, romanda Cho'lpon bolsheviklarni hatto tilga ham olgan emas, faqat bir o'rinda umuman sotsialistlar haqida gap boradi, xolos. Bunga zid o'laroq, jadidchilik harakatining kengaygani, jadidchilik g'oyalarining ancha keng yoyilgani ko'rsatiladi: Miryoqub, Hakimjon, Hasanov romanda o'zi ko'rinmaydigan Abdusamad mingboshi — bularning bari shu g'oyaga u yoki bu darajada berilganlar. Prokurorning suddagi nutqida mazkur harakatdan jiddiy xavfsirash seziladiki, bu ham yuqoridagi fikrimizni quvvatlaydi. Boz ustiga, jadidchilik harakati keskin qoralana boshlangan bir paytda Cho'lpon Sharafutdin Xo'jaev tili bilan uning maqsad-mohiyatini xolis bayon qila bildi. Romanda ijtimoiy-ma'naviy o'sishga boshlagan yagona qahramon — Miryoqubning jadidlarga yaqinlashuvi ham bejiz emas. Zero, adib talqinicha, inqilob arafasidagi Turkistonda jadidchilik harakatidan o'zga jiddiyroq bir ijtimoiy-siyosiy kuch mavjud emas edi.

Yuqoridagi mulohazalarga tayangan holda aytish mumkinki, yurtining o'tmishiga yigirma yil yuksakligidan nazar solgan Cho'lpon "Kecha" romanida oktyabr inqilobining amalga oshishi ijtimoiy-tarixiy zaruriyat emas, balki davr

taloto`plarining hosilasi ekanligini, xalqini chinakam saodatga eltishi mumkin bo`lgan yo`l boshqa bo`lganligini o`zi uchun yana bir karra tasdiqlab oldi-da, o`zi anglagan haqiqatni yo`li bilan o`quvchisiga etkazishga intildi. Adib o`sib kelayotgan avlodning yuz berayotgan hodisalar mohiyatini anglashini, manqurtga aylanishining oldini olishni istaganki, unga "chog`ishtirish orqali ma`rifat hosil qilish" imkonini yaratib berdi.

Tabiiyki, bu xil rasmiy nuqtayi nazarga zid qarashlarni ifodalangan taqdirdagina roman dunyo yuzini ko`rishi mumkin bo`lardi. "Kecha va kunduz" ustida ishlayotgan payti original asarlari bilan matbuotda deyarli qatnashmayotgan Cho`lponni roman e`lon qilinarman "yoki shuncha yozilgan she`rlarim kabi qaerlarda qolib ketarmikan",<sup>13</sup>- degan savol ko`p bor o`ylatgan. Ma`lumki, 30-yillar adabiyotida eng ommalashgan badiiy konstruktsiyalardan biri "inqilobgasha – inqilobdan so`ng" tarzida bo`lib, u o`tmishni qoralash orqali zamonani alqash maqsadiga xizmat qilgan edi. Cho`lponning asari ikki qismdan iborat ekan, ularning birinchisida inqilob arafasidagi hayot tasvirlansa-yu "Kecha" deb nom berilsa, ikkinchisida inqilob va undan keyingi yillar qalamga olinsa-yu "Kunduz" atalsa, — demak, adib yangi tuzumning afzalliklarini axiyri anglab etibdi-da, sho`ro pozitsiyasiga o`tibdi-da?! Cho`lpon uchun sotsialistik vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan o`quvchi va ziyrak mafkura xizmatchilarida ayni shu xil fikrni hosil qilish muhim edi.

Romanning nomlanishi shu xil zarurat bilan bog`liqligi adabiyotshunos S.Husayning tergovda bergan ko`rsatmasidan ham anglashilib turadi: "Kecha" romanning faqat birinchi qisminigina tashkil etadi, asarning ikkinchi qismi esa "Kunduz" deb atalajak. Cho`lpon bu so`zlarni aytar ekan, uni yana o`tmish to`g`risida yozyapti, deb ayblamasliklari ushun romanni shunday ikkiga bo`lishga majbur bo`lganligini so`zladi".¹⁴

Modomiki sarlavhani "niqob" deb atarkanmiz, unga adib yuklamoqchi bo`lgan tublik ma`no ham bo`lishi lozimdek. Hartugul, "Kecha"ning shu xil tub

¹³ В.Рашидов.Чўлонни эслаб // Адабиёт надири.- С.211

¹⁴ Н.Каримов. Чўлпон.- Т.,1991.- Б.77

ma'nosini anglashga urinib ko'rish foydadan holi emas. Bizningcha, adib yurtidagi ma'naviy qashshoqlanishni yuzaga keltirgan va uning hosilasi sifatida yanada biqirlashgan muhitni "Kecha" deb baholaydi. Cho'lpon talqinidagi "Kecha"ning butun dahshati shundaki, u odamlarni ma'nan majruh etadi, ma'naviy tanazzulga etaklaydi. O'sha muhit "besh-to'rt tanob erli" o'ziga to'q, Xadichaxon bilan durustgina turmush keshirishi mumkin bo'lgan Akbaralini fahsh botqog'iga botirdi; yetti avlodi dehqonchilikdan non topib egan Razzoq so'fini tekinxo'r kimsa-yu munofiq dindorga aylantirdi; Poshshaxon-u Sultonxondek bemalol bir uyni obod, bir yigitni baxtiyor qilishi mumkin bo'lgan guldek ayollarni zino ko'shasiga boshladi... Bularning ma'naviy qashshoqlanishi shu darajadagi, ular muhitni sog'lomlashtirish haqida umuman o'ylamaydilar, shu muhit doirasida o'z manfaatlarini ko'zlaydilar, xolos. Yurt boshida "benamoz raislar", imoni zaif imomlarning turishi raiyatga ta'sirsiz qolmagan: "odamlar namozga yurmay qo'yanlar". Millatning fojiasini Cho'lpon ayni shu e'tiqodsizlik (faqat diniy ma'noda emas)da ko'radi: odamlar na oxiratin obod qilishni va na foni dunyodagi turmushlarini yaxshilashni o'ylashadi — bugunning tashvishi bilan yashashadi, xolos.

Endi asarning bevosita nomlanishiga e'tibor qarataylik. Nega aynan "Kecha va kunduz" deb nomlandi. "Johiliyat davrlarini azaldan "zulumat" deb ta'riflangani kabi, Cho'lpon ham tariximizning shu bo'lagini "Kecha" deb ataydi. Bu zulumat qo'ynidan yorug'lik tomon intila boshlagan yagona odam — Miryoqub, shu ma'noda "Kunduz"ning tub ma'nosi ham shu qahramonga bog'liq holda konkretlashsa, ehtimol"². Demak, "Kecha" qismida tariximizning eng kir, eng qayg'uli, eng jirkanch, zulm- zo'ravonlik ostida ezilgan vaqtlari qalamga olingan bo'lsa, "Kunduz" qismida **Istiqlol orzusi, erk, adolat, milliy g'urur** kabi g'oyalar ilgari suruladi. Afsuski, bu fikrimiz taxmin maqomidan yuqori ko'tarilolmaydi. Sarlavhaning zohiriy ma'nosi esa "oq – qora" sxemasining ifodasiga xizmat qilgani holda tub ma'nolarni niqoblaydi.

² Д. Куронов. Чўлпон насри поэтикаси. Т: -"Шарк". 2004 91-бет

Cho'lponning lirik va publitsistik asarlarida rasmiy doiralar tomonidan qo'llab-quvvatlangan mavzuning ishlanishi o'ziga xos "gap aytish" vositasi bo'lib xizmat qilganini ko'rsatib o'tgandik. Xuddi shunga o'xshash holga "Kecha" romanida ham dush kelamiz. Romanni o'qiganda muallifning diqqat markazida turgan muammo — xotin-qizlar ozodligi masalasidek tuyulaveradi. Holbuki, agar roman yuqorida aytganimizcha ishki ehtiyojni qondirish ushuni yaratilgan bo'lsa, xotin-qizlar haq-huquqlari masalasi aslo yetakshi muammo sanalishi mumkin emas. Ya'ni, mazkur muammoning alohida bo'rttirilishi muallif uchun muhimroq bo'lgan ijtimoiy muammolar talqinini pardalash ushuni kerak. Cho'lpon bu o'rinda "niqoblanish"ni shunday mahorat bilan uddalaganki, adabiyotshunosligimizda hanuz asarning markaziy muammosi — xotin-qizlar ozodligi masalasi, Zebi — adib idealidagi qahramon,¹⁵ degan, bizningcha, birmuncha yanglish qarashlar mavjud. O'ylashimizcha, mazkur obrazning mohiyatiga Zebini "mute inson" deb ataganida, ayniqsa, adibning "Razzoq so'fi, Qurvonbibi va Zebi obrazlari orqali feodalizm sharoitida mutelashgan, haqiqat va adolat ushuni kurashishga o'zida kush va xohish topa olmagan xalqning ayanchli holatini ko'rsatishga intilgani"ni¹⁶ aytganida N.Karimov hammadan ko'ra yaqinroq boradi. Darhaqiqat, Cho'lpon ijodiyotida "Hujum"dan ancha ilgari qo'yilgan ayollar huquqi masalasi bu o'rinda ham beqiyos kengayadi — umuman INSON ERKI masalasiga aylanib ketadi. O'n besh yillar ilgari "Kishan kiyma, bo'yin egma, ki sen ham hur tug'ilg'onsen!" deya hayqirgan Cho'lpon mutelikni hayot dasturiga aylantirgan inson fojiasini romanning ko'p qahramonlarida, ayniqsa, Zebi timsolida yorqin ifodalab berdi. Adib mutelikning har qanday ko'rinishini, jumladan, e'tiqod masalasidagi mutelikni ham keskin qoralaydi. Zero, shu xil mutelik roman voqeligida butun boshli bir oilaning fojiasini keltirib shiqaradi — Zebini Sibir surguniga jo'natadi. Razzoq so'fini qotilga aylantiradi, beshora Qurvonbibini esdan mahrum etadi. O'zi e'tiqod qilgan narsani durust anglamaslik esa, aytish kerakki, 30-yillarda jamiyatimizda odat tusiga kirgan edi. Yurtimizda marksizmga e'tiqod qilganlari

¹⁵ X.Лутфиддинова. Зеби Зебона...- Т.,1993.- с.38

¹⁶ XX аср ўзбек адабиюти: XI синф учун дарслик.- Т.,1995.-Б.136,138

holda undan deyarli bexabar, faqat qo'l ko'tarib ma'qullashgagina yaraydigan butun boshli omma shakllanayozgandiki, ular ham o'zlari bilib yo bilmay o'zlarining Eshonbobolariga e'tiqod qilayotgandilar asli. Bu illatning yurtimizga neshog'li qimmat tushgani hozirda yaxshi ma'lum, albatta. Cho'lponning bezovta qalbi esa endigina kurtak holida bo'lgan mazkur illatning butun dahshatini oldindan ko'ra bilgandirki, asarda ayni shu masala ayrisha bo'rttirilgandir.

Xotin-qizlar ozodligi mavzusining oldingi planga chiqarilishida, tabiiyki, asarning syujet qurilishi yetakshi rol o'ynaydi. Roman voqealarining bitta asosiy o'q — Zebi bilan bog'lik syujet liniyasi tevaragida jamlangani ushun ham adib o'zini qiziqtirayotgan asosiy masala sifatida Zebi taqdirini, umuman, xotin-qizlar taqdiri masalasini taqdim qilish imkoniga ega bo'ladi. Holbuki, Zebi markazida turgan syujet chizig'i to'ydan so'ng ikkiga tarmoqlanib, birining markaziga Miryoqub, ikkinshisining markaziga Akbarali chiqadi. Akbarali bilan bog'liq voqealar Zebi liniyasini uziq chiziqlar bilan bo'lsa-da davom ettirib turadi-yu, roman nihoyasida yana Zebi oldingi planga chiqariladi. Bu narsa o'quvchini asarning markazida Zebi taqdiri yotishiga yana bir karra ishontiradi, garchi tarmoqlangan syujet chiziqlari masalani chuqurroq mushohada qilishga undasa-da, o'quvchi bunga emotsional jihatdan tayyor bo'lmay qoladi. Natijada aksariyat o'quvchilar uchun syujet voqealari birlamchi, Zebiga bevosita aloqador bo'lmagan yoki faqat bilvosita aloqador bo'lgan voqealar-u tafsilotlar ikkilamchi bo'lib qoladi. Holbuki, romanning tub mazmuni o'sha "ikkilamchi" unsurlar orqaligina oshiladi. Demak, "Kecha" romanida mazmunni ifodalashning bosh vositalaridan sanaluvchi syujet ayni paytda tub mazmunni pardalashga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Cho'lpon "Kecha va kunduz" romanida o'zbek xalqi tarixining muhim bir davrini keng epik ko'lamda tasvirlab berdi. Mavjud ijtimoiy tuzumni o'zgartirish, mustamlakachilik kishanlarini parchalash lozimligi haqidagi fikr Cho'lpon ijodining bosh masalasi sifatida bu romanda katta badiiy kuch bilan ifodalandi.

Cho'lpon ona yurti O'zbekistonning mustaqil bo'lishi, xalqning erkin nafas olishini orzu qilgan, uning barcha ijodi faqat shu maqsadga qaratilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, I bob yuzasidan xulosa qiladigan bo'lsak, quydagilar diqqatga molik

- Strukturalizm yangi fan .U XX asr o`rtalarida Fransiyada vujudga kelgan;
- Klod Levi Stross va Rolan Bart tadqiqotlari strukturalizmning poydevorini yaratgan, keyinchalik qolgan G'arb mamlakatlariga tarqala boshlagan;
- O`zbekistonga XXI asr boshlarida kirib keldi va milliy mustaqillik yillarida o`rganila boshlaandi;
- Dilmurod Quronov, G'ayrat Murodov, Suvon Meliyev, Qurdosh Qahamonov kabi olimlar bu boradagi izlanishlarni olib bormoqdalar;

Rolan Bartning tadqiqotlari hozirgacha dasturulamal bo`lib xizmat qilmoqda. U yaratgan “ Избранные работы” , “ Поэтика и семиотика”, “Tillarning urushi”, “Muallifning o`limi”, “Matn lazzati”, “Bir hikoyaning struktural tahlili”, “Belgi tassurotining asaridan matn sari”, “Adabiyot va ramziy til”, “Mifologiyalar” asarlari o`quv qo`llanma sifatida foydalanilib kelinmoqda.

-

II BOB “KECHA VA KUNDUZ”ROMANI BADIY MATNIDAGI STRUKTURAL BELGILAR

2.1. Paradigmatik munosabatlar

Har qanday badiiy matn murakkab adabiy-estetik tizim bo`lib hisoblanadi. Tizimning yuzaga kelishi uchun undagi eng kichik bo`laklar bir-birlari bilan muattasil aloqa -robitida bo`lishlari talab etiladi.

Strukturalizmning atoqli namoyandasi Rolan Bartning fikricha, matn cheksiz-chegarasizdir. Bunday cheksizlik nafaqat gorizontal (to`g`ri), shuningdek, vertikal (tik) nuqtai nazardan kuzatiladi.

Badiiy matnning cheksizligi o`z-o`zicha yuzaga kelmaydi. Matnning cheksizligi doimiy harakat tufayli hosil bo`ladi.

Badiiy matn qanday harakatlanadi. Badiiy asar tadqiqotchilari voqea (syujet) rivojini harakat deb tushuntiradilar. Ammo matn harakati boshqacha tarzda zohir etiladi.

Matn harakati undagi eng kichik birlik (leksiya)lar ichida joylashgan belgilarning boshqa bir belgilar bilan biror-bir munosabatga kirishi tufayli amalga oshadi. Belgilararo munosabatlar quyidagi guruhlariga bo`lingan:

- 1) paradigmatik munosabatlar;
- 2) sintigmatik munosabatlar;
- 3) binar oppozitsiya.

Biz ushbu faslda "Kecha va kunduz" romanidagi mazkur munosabatlarning yuzaga kelishi haqida fikr yuritamiz.


Paradigmatik munosabatlar muayyan bir yaqinlik, obrazli qilib aytganda, qarindoshlikka asoslangan. Badiiy matndagi bunday aloqa-bog`lanishlar natijasida ma`lum bir guruhlar paydo bo`ladi. Tahlil va talqin jarayonida mazkur guruhlariga kiritilgan belgilarni vertikal (tik) holda tartib bilan joylashtirib chiqamiz. Natijada paradigmatik qator hosil bo`ladi.

Roman badiiy matnidagi paradigmatik munosabatlar belgi asosida yuzaga kelar ekan, eng avvalo, belgi xususida ayrim bir mulohazalarni bayon etish lozim.

Semiologlarning fikriga ko`ra, belgi ikki qismdan tashkil topadi. Bu fikrni quyidagi chiziqda ko`rsatish mumkin:

bildiruvchi $\longrightarrow$ bilinuvchi

R.Bart "Bugungi mif" nomli tadqiqotida belgi ikki emas, uchta qismdan iborat degan qarashni ilgari surgan. Bunday holda tubandagi chizma yazaga keladi:



Lingvistik o`rganiladigan belgi bilan badiiy matndagi belgi aynan bir narsa emas. Masalan, o`zbek tili zahirasiidagi "gul" so`zini tilshunoslik jihatidan olib qaraylik:

gul

bildiruvchi $\longrightarrow$ bilinuvchi
(uchta nutq tovushi
yig`indisi)

1) yopiq urug`li o`simliklarning
urchish uchun xizmat qiladigan gul-
band, kosabarglar, tolabarglar,
changchilar va urug`chidan iborat

qismi;

- 2) atirgul va umuman ziynat uchun
- 3) ekiladigan yoki tabiiy, o`zi o`sadigan gulli o`simliklar, chechaklar...

Yuqorida berilgan chiziqda qayd etilgan bildiruvchi va bilinuvchi o`zaro qo`shilib, "gul" belgisini tashkil etadi.


Strukturalizm va semiotika jihatidan mazkur "gul" belgi hisoblanmaydi, balki belgining birinchi unsuri - bildiruvchi sanaladi.

Fikrimizni isbotlash uchun Z.M.Bobur lirik ijodiga mansub quyidagi mashhur baytni olib ko`raylik:

Sen, ey gul, qo`ymading sarkashligingni sarvdek hargiz

Ayog`ingga tushib bargi xazondek buncha yolvordim.

Endi mazkur "gul" so`ziga belgi tarzida yondashib fikr yuritamiz.



Endi esa yuqorida bayon etilgan zarur fikr-mulohazalar asosida "Kecha va kunduz" romani matnidagi belgilarni paradigmatika muammosi bo'yicha talqin etishga o'tishimiz mumkin.

Badiiy matn tarkibiga kiritilgan quyidagilar belgi sifatida namoyon bo'ladi:

- 1) badiiy obraz (qahramon, personaj);
- 2) muayyan bir tasvir (tabiat yoki joy manzarasi)
- 3) matn tarkibiga lingvistik birlik tarzida kirgan so'z, shuningdek, jumla, gap, abzas...

Rolan Bartning e'tiroficha, badiiy matn son- sanoqsiz belgilardan tashkil topgan yagona bir belgidir.

Yuqorida berilgan tasnif bo'yicha, eng avvalo, badiiy obrazlar paradigmatic qatorlarni aniqlashga kirishamiz.

Badiiy obrazlar paradigmaticasi

Tabiiyki, badiiy syujetga asoslangan har qanday nasriy matnda janr talablari va imkoniyatlaridan kelib chiqib ham holda ishtirokchi (obraz)lar miqdori chegaralangan bo'ladi. Hech bir obraz matn hududiga shunchaki, o'z-o'zicha kiritilmaydi. Ularning har biri matn maydoniga muhim badiiy-estetik vazifani bajarishi zarur.

"Kecha va kunduz" matni tarkibidagi badiiy obrazlar ham adabiy-estetik, ijtimoiy-falsafiy idealga ko'ra quyidagi vazifalarni bajaradilar:

- 1) mustamlakachilik davrida xalqning qoloqligi va jaholat, zulmning ustuvorligini ko'rsatish;
- 2) millat xotin-qizlarining ijtimoiy va shaxsiy hayotda huquqsizligini badiiy aks ettirish;
- 3) chor mustamlakachiligi istibdodining og'ir va fojiali oqibatlarini tasvirlash;
- 4) endigina shakllanib, rivojlanib borayotgan milliy uyg'onish va milliy taraqqiyotning sabab va omillarini oydinlashtirish.

Mazkur tasnifga asoslanib quyida mana shunday paradigmatic qatorni tizishga kirishamiz.

1-paradigmatic qator:

Noib to`ra

Ignatyuk

Mingboshi Akbarali

Noib to`raning xotini (Valya)

Bunday paradigmatic qator shartli bo`lib, qatorlardagi badiiy obrazlardan ayrimlari matn taraqqiyoti davomida boshqa paradigmatic, hatto sintagmatic binar oppozitsiya qatorlariga ham kirish mumkin. Masalan, ushbu qatorlardagi Miryoqub "Kecha va kunduz" badiiy syujeti oxirrog`iga borib 1-paradigmatic qatorni tark etadi va undagi boshqa obrazlar bilan binar oppozitsiyaga kirishadi.

1-paradigmatic qatorga kirgan obrazlar Turkistonda chor mustamlakachiligi istibdodini aks ettirishga xizmat qiladilar.

Paradigmatic qatorlardagi bosh o`rinni Noib to`ra obrazi ishg`ol etgan. Buning boisi shundaki, u roman badiiy hududida mustamlakachi chor istibdodini aks ettiruvchi asosiy obraz tarzida namoyon bo`lgan. Matnning aksariyat bo`laklarida "Noib to`ra" sifatida tilga olinadi. Faqat bir joyda - Miryoqub, Valya, Zunnunlar ishtirokidagi ziyofatda Noib to`raning xotini uni "Fedya (Fyodor)" deb atama olgan. Mana shu o`tirishda xotin tomonidan o`z eriga shunday baho -ta`rif beriladi:

"Bilasizmi, biz bunda ichishib o`tiribmiz. Xursandmiz. Yaxshi do`stlar to`planishganmiz. Fedya sho`rlik nima holdaykin. Bilasizmi, yuz-ellikta soldat bilan, mo`l-to`pxonalar bilan ketdi. Tog` odamlari juda mergan keladi. Mening Fedyam, siz bilmaysiz, juda yovvyurak narsa. Soldatlardan oldin o`zi choppib ketadi...qilichini sug`urib. Birorta sartiya-qirg`iz mergani otib qo`ymasin, deb qo`rqasan. Xotya sartlar uni yaxshi ko`rishadi. O`zingiz, bilasiz, mani juda yaxshi biladi. Sart kitoblarini o`qiydi. Sartga yozadi. Sartlar uni "Tarfi to`ra" deyishadi... Bilasizmi, u o`zi ham sartlarni juda yaxshi ko`radi. Yuvosh, qo`ydek xalq, deydi.

Qancha jabr ko`rsa, qiynashsa ham "Xudo!" deb to`ra beradi, deydi. Sartlarning shu dindorligini, ayniqsa, yaxshi ko`radi..." (150-bet).

Bunday ta`rif, tabiiyki, bir yoqlama. Bir maslak (mustamlakachilik) ostidagi bir shaxsning boshqasiga beradigan bahosi. "Dovyurak Fedyaning jasorati" chor istibdodini saqlab qolish va mustahkamlashga qaratilgan. U zulm, adolatsizlik tufayli isyon ko`targan mahalliy tog`liklarni ayovsiz jazolash uchun "fidoiylik" ko`rsatadi, to`p ottirib, uy-joylarini vayron qiladi. Qo`lga tushgan isyonchilarni o`ldiradi, qamoqqa tashlaydi.

Uning sart (o`zbek) tilini bilishi, bu tilda o`qib-yozishi katta olim tarzida G`arb ilmiy hayotida tanilish kabi shuhratparastlik istagidan kelib chiqqan. U Sharq, Turkiston tarixi, madaniyati, badiiy adabiyotiga oid noyob qo`lyozma kitoblarni Miryoqub va boshqalardan sovg`a (albatta, tekinga) olib u haqida maqolalar yozadi, bularni Rossiya va xorij jurnallarida chop ettiriladi.

Romanda jadid harakatining namoyandasi sifatida ishtirok etgan obrazlardan biri - Nizomiddin Xo`jayev bu haqda Miryoqubga shunday deydi:

"Mamlakatning tarixi, adabiyotiga oid qimmatbaho asarlarni tekinga berish hamda bir rus amaldaoriga berish, bilmadim, nimaga teng? Mencha, bu millatga xiyonat!" (174-bet).

"Sartparvar, ilmsevar" Noib to`raning axloqiy qiyofasi - o`z uyida - Miryoqub bilan muloqotda aniq ochib berilgan. U uch xotinli Akbarali mingboshining to`rtinchi bor uylanishini eshitib, shunday deydi:

"Akbarali ahmoq! Eshshak!

... Sizning shariatingiz to`rt xotin olishga yo`l qo`yadi. Bu qonun, aslida, chakki qonun emas. Har bir erkak buni biladi... faqat u mundan yuz yil, yuz ellik yil burun durust edi, zamon ko`tarildi... Hozir to`rt xotin olib, to`rt tashvishni yelkaga ortishning nima hojati bor... Odam degani, albatta, bittaga qanoat qila olmaydi... bu ma`lum. Lekin buning uchun uylanib o`tirish kerakmi?" (135-bet).

Shu gaplardan so`ng u o`zining "axloqiy" qarashlarining suhbatdoshiga uqtirish, aslida o`rgatishga o`tadi:

"Hoy-havas uchun mutloq uylanib o'tirish shart emas... mening bir oshnam bor: urushga ketgan ofitserning xotini. Yosh chiroyli narsa. Yaqinda, ziyofatda bir savdogar boyning xotini bilan tanishdim... bu oqshom o'shanikiga bormoqchiman... ochiq, dilkash narsa..." (135-136-betlar).

Yetakchi diniy-axloqiy ta'limotlarda, xususan, islom, nasroniylikda nikohdan tashqari shahvoniy munosabatlar harom ekanligi ta'kidlangan.

Binobarin, Noib to'raning ayollar bilan "erkin muhabbat" haqidagi qarash va amallari g'ayriaxloqiy mohiyatchi. U nafaqat insonni, hatto jamiyatni, insoniyatni aniq tanazzulga olib boradi. Bu hodisani biz hozir G'arb jamiyatlarida yaqqol ko'rmoqdamiz. Axborot vositalari yer yuzining bu hududida axloqsizlikning avj olganligi, oilaning yo'qolib borayotganini ma'lum etayotir. Noib to'ra kabi axloqiy tuban kishilarning buzuvchi g'oyalari, g'ayriaxloqiy a'moli G'arbni shunday nochor, sharmandali ahvolga solib qo'ymoqda.

Matn taraqqiyoti davomida Noib to'raning g'oyat murakkab, vaziyatga qarab o'zgarib turuvchi badiiy qiyofasi tobora oydinlashib, aniqlanib boradi:

Struktur tahlil bu obrazni quyidagicha baholashga imkon beradi:

1) mahalliy aholi, ayniqsa, kambag'al toifaga nisbatan shafqatsiz, xalq isyonlarini quyrol kuchi bilan bostiruvchi zolim chor zobiti;

2) poraxo'r amaldor - Miryoqub va boshqalarning ishlarini bitkazib, evaziga ulardan pul, sovg'a-salom, nodir qo'lyozmalarni oladi;

3) aroqxo'r, qo'linga ziyofatlardan mast-alas qaytadi.

4) tahlil jarayonida aytib o'tganimizdek, yosh, chiroyli xotini bo'la turib, boshqa ayollar bir pinhona "ishqiy" muloqotlarni xush ko'radi. Bir so'z bilan aytganda, zinokor.

5) makkor va dog'uli odam. Jadid maktablarini mingboshilar orqali yoptirib, o'zi go'yo betaraf turadi. "Ma'rifatparvar olim" nomiga dog' tushirgisi kelmaydi.

6) oqibatsiz inson - Akbarali qishloq ahliga zulm o'tkazgan ikki boyni qamab qo'yganda, boylarning yonini oladi. "Podsholik hamma vaqt yurtning obro'ylik odamlarini himoya qiladi. Obro'y davlat bilan topiladi" deb Akbaralini

qoralaydi. Mansabdan nohaq foydalanayotgan mingboshini himoya qilmay, "ish hokim to'raning qo'lida" deb o'zini gapga oladi.

Shunday qilib, Noib to'rada bir-ikki illat emas, balki illatlar majmuasi mavjud. Romanning yutug'i shundaki, undagi jamiyki obrazlar, ayniqsa, "Parfi to'ra" (Fyodor) timsoli juda tabiiy va jonli chiqqan. Bu albatta, badiiy matnning realistik mezonlar asosida yaratilgani natijasidir.

Noib to'ra bosh qahramon bo'lmasa-da, matnning anchagina bo'laklarida ishtirok etadi va shu davr chor hukumati ijtimoiy-siyosiy tizimining tub mohiyatini anglashga yordam beradi.

Noib to'radan farqli ravishda chor davlat qurilmasi vakillaridan yana biri bo'lgan Ignyatyuk badiiy matnning faqat ikki bo'lagidagina ishtirok etgan. Romanda uning portreti, fe'l-sajiyasi haqida deyarli hech narsa deyilmagan. Bir joy degani g'oyat muxtasar "avraq Ignyatyuk" deyilgan. Avraq - juda ozg'in, oriq ma'nolarini bildiruvchi so'z bo'lib, "idora kalamushi" ekanligini ta'kidlash maqsadida istifoda etilgan.

"Kecha kechasi ko'cha eshigi zinasida arvoq Ignyatyukning quruq changaliga qistirilgan o'n so'mlik qog'oz o'z vazifasini bajargan edi: ertalab soat 10 da mahkamaga kirib kelgan Miryoqubning qo'lga Ignyatyuk bir yangi pasport uzatdi. 24 yashar Yevdokiya Zaxarovna Kabilina nomiga yozilgan bu muddatsiz pasport yosh xotinning kechagi tashvishini tamoman birtaraf qilar olardi" (146-bet).

Ignyatyuk badiiy obrazi chor mahkamalari amaldorlari orasida keng tarqalgan poraxo'rlik illatiga muhtalo bo'lgan amaldor. U ancha mas'ul vazifada - Noib to'raning sarkotibi bo'lib xizmat qiladi. O'sha davr uchun kattagina pul hisoblangan o'n so'm evaziga soxta pasport tayyorlab beradi. Davlat hujjatlari - pasport pul kabilarni soxtalashtirish - katta jinoyat. Bu kabi ishlar hukumat qurilmasiini oxir-oqibat izdan chiqaradi, uni muqarrar halokatga olib boradi. Ignyatyukning qonunga zid ravishda kimlargadir soxta pasport hozirlab berishi chor idoralariga poraxo'rlikning avj olganligi, aksariyat amaldorlarning manfaatparstlik niyati bilan xizmat qilayotganliklaridan dalolat beradi.

Shunday qilib, Noib To`ra va Ignyatyukni poraxo`rlik illati ham bir paradigmatic qatorda birlashtirish uchun asos bo`la oladi.

Mazkur paradigmatic qatorda mingboshi Akbarali obrazi ham bor. Chunki u ham chor boshqaruv tizimiga mansub. Noib to`ra va uning xizmatchilari tomonidan berilgan har qanday buyruq, ko`rsatmani so`zsiz bajarishga majbur. Masalan, Noib to`raning og`zaki buyrug`iga asoslanib o`z hududida ochilgan jadid maktabini yoptiradi. Aslida jadid maktablari faoliyati o`sha davr hukumati qonunlariga zid emas. Maktabda hukumatga qarshi siyosat, targ`ibot olib borilmaydi. Dunyoviy va diniy ilmlar o`rgatiladi. Biroq chor imperiyasi o`z mustamlakalari, ayniqsa, qadimdan ilm-fanning beshigi bo`lgan Turkistonda yangidan ma`rifatning taraqqiy etishini istamas edi. O`sha zamon chor hukumatining maxfiy hujjatlarida Turkistonda maktab-maorif ilm taraqqiyotini qanday yo`llar bilan bo`lsa-da, to`xtatish, jaholat, xurofotni avj oldirish bo`yicha ko`rsatmalar bor bo`lgan.

Millat, xalq, ma`rifat idellaridan boxabar, johil va savodsiz Akbarali Noib to`ra buyrug`ining qonunga xilof, o`z vataniga xiyonat ekanligini o`ylab o`tirmay zamonaviy maktabni yopadi va yomonotlig` bo`ladi.

Jadid gazetasi, tabiiyki, ilm boshining (aslida Noib to`raning) bu qilmishini qat`iy qoralaydi:

"...bo`lusining hokimi mutloqi o`lan Akbarali mingboshi butun bo`lusning yagona usuli jadida maktabini bog`lashib, muallimni haq bermasdan haydatdirdi... Uch oygina davom eta olmish bu maktab millat bolalarini oz-da bo`lsa oq-qorani tanitdirmoqqa muvaffaq bo`lmish edi. Mingboshining o`zi esa har sana bir evlanmoqdan, xotin yangilamoqdan bo`shalmaydir... Uch xotini ustiga yana to`rtinchisini, hatto besh-olti, yettinchisini... ham oluvga qarshi emas" (79-bet).

So`z, ayniqsa, matndosh orqali aytilgan so`z katta ta`sir, qudratga ega. Ushbu kichik maqola Akbaralini muvozanatdan chiqaradi, g`azablanib, o`zini qayerga urishini bilmaydi, "yetti aqlimga nomimi ketdi" deb kuyunadi. Mingboshiga qaraganda ancha aqlli, ziyrak bo`lgan Miryoqub shunday deydi:

"Noib to`ra ham ayyor odam. O`zi buyruq berib, yoptirsa bo`laridi, unday qilmadi. O`zi bir chekkada turib siz orqali qildirdi... Tayoq endi kelib sizning boshingizga sindi" (84-bet).

Paradigmatik qatorda Noib to`raning joyini alohida bir o`ringa ega. U badiiy matndagi ishtirokchilar tomonidan "xonim" deb tilga olingan. Faqat bir o`rinda bu ayolning onasi qiziga "Valya" deb murojaat etadi. Demak, uning to`liq nomi – Valentina, Rossiyada keng tarqalgan ism.

Sirtidan qaralganda, mazkur ayol baxtiyor, betashvish umrguzaronlik qilayotganga o`xshaydi. Badavlat xonadonning bekasi. Mavqei baland edi, yosh, sog`lom bolasi bor. Yashash uchun hamma narsa muhayyo. Istagan taomini yeyishi, ko`ngli tusagan libosni xarid qilib kiyishi mumkin. O`zi ham do`ndiq, kelishgan ayol.

Biroq matn taraqqiyoti davomida uning asl mohiyati, axloqan tubanlashgani ochiq-ravshan ma`lum bo`la boshlaydi.

U erining o`ziga nisbatan xiyonatkorligi, bosaqi ayollar bilan dilxushlik qilishini biladi. Eri unga nisbatan butunlay beparvo, loqayd. Odam desa harga yaqin uyga qaytadi. Nochor ayol o`zining yoshlik ehtirosini pasaytirish, qaynoq sovtutish uchun yulang -"ovunchoq" izlaydi. Bunda yulangni uzoqlardan emas o`z uyidan topadi. Mahalliy sartlarga mansub, yosh, ayni kuchga to`lib-toshgan oshpaz Zunnunni yo`ldan urib, o`ziga o`ynash qilib oladi.

Matn tarkibida shunday tasvir bor: "Zunnun o`zi hunarini ko`rsatmoqchi bo`ldi, shekilli, xuddi deraza qarshisiga kelganlarida xonimni mahkam quchoqladi-da, derazaning pisaygina sulisiga o`shqirdi. Miryoqub ichkarida yuragini hovuchladi: to`raning xotini lablariga oshpaz Zunnuning lablarini qo`yib uning qulog`ida hansirardi" (140-bet).

Xonimga Noib to`raga xos zinokorlikka emas, ichkilik (mast qiluvchi ichimlik) bozlik xos. U Zunnunning uyida uyushtirilgan ziyofatda mazkur illatga moyilligini ko`rsatadi.

"Xonim stol ustidagi bir chiroylik shishani Miryoqubga ko`rsatib:

- Eng sevgan likyorim, - deydi. -Mast bo'lguncha ichi beraman. Juda nafis narsa" (150-bet).

Matn davomida ichkilikbozlikning intihosi va va oqibati o'z badiiy ifodasini topgan:

"Miryoqub o'tirar-o'tirmas qo'lini xonimning yelkasiga tashladi. Xonim og'irlashgan boshini burib mast ko'zlari bilan eshik tomonga qaradi. Zunnun uyda emasdi. Shunday so'ng yana Miryoqub tomonga burilib, qo'lini uning yelkasiga tashladi. Yana ichdilar... Xonim hamon so'zlardi. Faqat so'zlari tomchilab tomizilayotgan dori singari bitta-bitta to'kilib borardi. Xonim tamom mast bo'lgan ko'zlari bilan goh-goh eshik tomonga qarar, Zunnunning kirishini kutardi. Zunnun kirmadi. Yana ichdilar... Yana ichdilar" (172-bet).

Shu tariqa xonim uning noz-ishvalaridan bir qadar zerikkan Zunnun tomonidan Miryoqubga "taqdim" etiladi.

Bir rus ertagida ichkilikbozlik, zinokorlik va qotillik doimo yonma-yon yurishi haqida hikoya qilingan. Matnning mazkur lavhasida dastlabki ikki illatning bog'liqligini ko'rish mumkin.

Sharq an'analari ruhida tarbiya topgan kitobxon bunday axloqsiz harakat mastlik tufayli sodir bo'ldi, xonim mastlikdan so'ng ruhiy qaynoq pushaymonlar ichida azoblanadi, deb o'ylaydi. Biroq bunday bo'lmaydi. Buni navbatdagi lavhada ko'rsa bo'ladi:

Miryoqub sharpa sezib, ko'zini ochgan vaqtida xonim oyna qarshisida sochlarini tuzatmoqda edi. Miryoqub o'rnidan turmoqchi bo'lib yostiqlardan boshini ko'tardi. Xonim darrov orqasiga burilib, uni ko'rgach, qizarib kuldi:

- Shoshmay tur, Miryoqub, azizim, - dedi. - Men chiqib ketay, so'ngra turarsan. Qarama menga...

... - Ko'rishib turaylik, - dedi Miryoqub.

Xonim ochilib kuldi:

- Jonim bilan... - dedi eshikdan chiqib turib" (152-bet).

Demak, o'z muhitida keng yoyilgan ichkilikbozlik, zinokorlik illatlariga to'la-to'kis o'rgangan, bu ishlarni tabiiy holat deb biladi, vijdon iztirobi uni

tashvishga solmaydi. Bunga, eng avvalo, axloqsizlikka asoslangan muhit aybdor, albatta. Shu bilan birga, "birinchi ustoz" Noib to'raning shaxsiy ibratini ham e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Shuningdek, xonimning o'zida ham mazkur illatlarga moyillik, ishtiyoq bor.

Xonimda birmuncha durust xususiyatlar ham yo'q emas. U chor tizimidagi amaldorlar va ularning rafiqalaridan farqli ravishda sart (o'zbek)larga bepisandlik, nafrat bilan qaramaydi, ular bilan aloqaga kirishish, muloqotdan orlanmaydi.

Ayol o'z mohiyati va tabiatiga ko'ra baynalminaldir. Bu xususiyatni Noib to'ra xotini misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Xonimning ichkilikka moyilligi va begona erkaklarga ishtiyoqini Noib to'raning oilaga, rafiqasiga xiyonatiga qarshi isyon, norozilik harakati deb tushunsa ham bo'ladi. Niso xonimning faoliyati o'ziga xos qiyofasi faqat shular bilangina kifoyalanib qolmaydi.

Buni roman matni oxirroqlaridagi bir lavhada ko'ramiz.

Qishloqdagi dehqonlar isyoni tufayli Akbarali mingboshi o'z lavozimidan haydalishi aniq bo'lib qoladi. Mansabdan ketishini o'limdan ziyod deb bilgan Akbarali Miryoqubning Rossiyadan yozgan maktubidagi maslahat asosida Zunnun orqali xonimga murojaat qilib, ko'mak, himoya so'raydi.

Ma'lumki, Noib to'ra o'z xo'jayini - hokim to'radan qo'rqishi, unga yurak yutib gapira olmasligini aytib, yordam berishga ojizligini tan olgan edi. Erining qo'lidan kelmagan bunday ish xonim uchun unchalik qiyin emas. Chunki u Turkistondagi zodagon ayollar, shu jumladan, hokim to'raning xotini bilan yaxshi tanish, degani. Shu sababli u Zunnun o'z valene'mati - Akbaraliga ko'mak berishni iltimos qilganida ikkilanib, gapni cho'zib o'tirmaydi. Ishni bitkazish uchun juda katta pul - ikki ming so'm so'raydi. Xonim yaxshi biladiki, bunday pul yordamida Akbaralini bemalol o'z mansabida saqlab qolsa bo'ladi.

Hammani, hatto Noib to'rani dahshatga solishga qodir Hokim to'ra o'z xotinining yo'rig'ida yurishga mahkum.

Bu hodisaning sababini Miryoqub matnning ancha oldingi lavhalaridan birida o'ziga mulohaza qilib ko'rgan edi.

"... imperiya - oq podshodan, Noib to`radan va uning pogonidan iborat ekan. Shuncha ming fuqaroning va ham biz singari bebuzoot bechoralarning ixtiyori, o`zingiz bilasizki, Noib to`rada, ya`ni "pogon" egalarida ularning butun inon-ixtiyori esa xotinlarining qo`lida bo`lar ekan" (162-bet).

Akbaralining bevaqt zaharlanib o`lishi xonimning bu boradagi harakatlarini puchga chiqaradi.

Shunday qilib, zohiran xushchaqchaq, odamshavanda ko`ringan xonimda Noib to`rada mavjud uch asosiy illat (zinokorlik, ichkilikbozlik, pul-poraga daxldorlik) ham bor ekanligi ma`lum bo`lyapti. Chunki ularni bir paradigmatic qator - chiriyoqgan, qulash oldida turgan imperiyaga mansublik birlashtirib turibdi. Roman matni tahlili jarayonida yana quyidagi paradigmatic qatorlarni yuzaga keltirsa bo`ladi:

2-paradigmatic qator

Zebi

Saltanat

Enaxon

O`lmas

Ushbu qatorga kiritilgan obrazlar yoshlar toifasiga mansub bo`lib, ularni yoshlik kechinma-ehtiroslari, muhabbatga moyillik kabi xususiyatlar ularni o`zaro bog`lab - yaqinlashtirib turadi.

3-paradigmatic qator

Xadichaxon

Fazilat

Poshshoxon

Sultonxon

Zebi

Bu qatorga olib kirilgan mazkur obrazlar bir oilaga mansub bo`lib, ulardan to`rttalasi mingboshining xotinlari (Xadichaxon, Poshshoxon, Sultonxon, Zebi) va

qizi (Fazilat)dir. Ushbu obrazlarni bir oilaviy muhitga mansublik, huquqsizlik va baxtsizlik singarilar yaqinlashtirib bir guruhga jamlagan.

4-paradigmatik qator

Eshon

Razzoq so`fi

Eshonning boshqa muridlari

Zikr etilgan ushbu obrazlarni yigirmanchi asr boshlarida Turkistonda avj olgan ruhiy-ma`naviy qoloqlik, jaholat, manqurtlik dunyoqarashi, mutaassiblik kabi salbiy jihatlar bir qatorga jamlagan. Biz o`z ishimizning hajmi chegaralanganligi bois keyingi paradigmatic qatorlarni batafsil matniy-struktur tahlil imkoniyatiga ega emasmiz. Biroq ana shu qatorlarning o`zi ham roman g`oyaviy-badiiy konsepsiyasini ko`rsata oladi.

2.2.Sintagmatik munosabatlar

Sintagmatik munosabatlar o`xshashlikka emas, qo`shnichilikka asoslanadi. Rolan Bart o`z kitobxonlariga sintagmatik munosabatni yaxshiroq tushuntirish uchun "Belgi munosabatlari" nomli maqolasida quyidagi uchta narsani misol sifatida keltiradi:

- 1) ko`ylak;
- 2) galstuk;
- 3) pidjak

Ushbu kiyimlar alohida-alohida olib qaralganda bir-biriga mutlaqo o`xshash, yaqin emas. Lekin ular bir odam tomonidan kiyilganda va bog`langanda yagona kompozitsion butunlikni yuzaga keltiradi. Ularning biri ikkinchisini albatta taqozo etadi. Ko`ylak bo`lmaganda, galstukni bog`lashning iloji yo`q. Ko`ylak va galstuk esa pidjak kiyishni talab qiladi.

Badiiy matnda ham xuddi shunday holatni ko`ramiz. Bir-biriga yaqin, aloqador bo`lmagan badiiy obrazlar badiiy badiiy matn taraqqiyoti davomida bir-birini to`ldirib, matn aloqalari, bir butunligini yuzaga keltirish ishiga xizmat qiladi. "Kecha va kunduz" romani badiiy matnida ham o`zaro o`xshash bo`lmagan, ammo bir-birini to`ldirib, aniqlashtirib boradigan bir qancha badiiy obrazlar bor. Mana shunday obrazlar bilan ayrim sintagmatik qatorlarni yuzaga keltiramiz va matniy tahlilni davom ettiramiz.

1-sintagmatik qator

Miryoqub - Akbarali - Zunnun - Hakimjon

Miryoqub, Akbarali, Zunnun, Hakimjon xarakter, faoliyat, yashash tarzi, dunyoqarash, maqsad-maslak jihatdan bir-birlariga o`xshamagan obrazlardir.

Miryoqub rasmiy jihatdan biror hukumat idorasida xizmat qilmaydi. Asosan pinhona tadbirkorlik bilan shug`ullanadi. Bir nechta do`kon, choyxonalari bor. Katta daromad keltiradigan paxta zavodining egalaridan biri.

U ziyrak, ishbilarmon, istagan odamning ko`ngliga yo`l topa oladigan kishi. O`ziga xos demokratizmga moyil. Faqat katta-kichik amaldor, boylar emas, faqir fuqaro, kichik xizmatchi, mardikor, chorakorlar bilan ham erkin, xush muomalada bo`la oladi. Bu boisdan dushmanlari yo`q hisobi. Hammaning ko`nglini olishga, barcha bilan teng, samimiy munosabatda bo`lishga urinadi. Boyligi, mavqeini ko`z-ko`z qilishni istamaydi, aksincha yashirib, o`zini ko`pchilik qatoridagi bir odam, oddiy fuqaro sifatida ko`rsatishga harakat qiladi.

Miryoqub Akbarali mingboshidan zehn, aql, muomala, topqirlik, ishbilarmonlik jihatidan bir necha baravar yuqori turadi. Aslida Akbaraliga yuqori mansabni olib berish, uni hukumat tizimiga Miryoqub olib kirgan. Avval Akbarali imkoni juda cheklangan ellikboshi bo`lib, qishlog`idan tashqarida uni juda oz odam bilgan. Tasodif tufayli bir davrida Miryoqubni uchratib qolib, u bilan bir oz muloqotda bo`ladi. Uning qo`lidan ko`p ish kelishini tushunib, uyiga qaytgach, bir aravani qovun-tarvuz kabi dehqonchilik ashyolari bilan to`ldirib, Miryoqubnikiga jo`natib yuboradi. Oradan ko`p o`tmay, Akbarali mingboshilik mansabiga ega bo`ladi.

Sirtidan qaraganda, Akbarali Miryoqubning xo`jayini, valene`mati. U Miryoqubni jahli chiqqanda koyib, urishib, hatto haqorat qilib turadi. Unga bemalol ish buyuradi. Ammo ularning munosabatlariga chuqurroq nazar solinsa, Akbarali Miryoqubning qo`lida bir qo`g`irchoq, o`z maqsadlarini amalga oshirishda qulay bir vosita, xolos. Po`lus (volost) aslida Miryoqubning aqli, tadbirkorligi bilan boshqariladi. Hatto mingboshining mulki yer-suvlari Miryoqubning ixtiyori, jasoratlarida. Akbarali biror ishni Miryoqubsiz bajarolmaydi. Chunki unda tashkilotchilik, o`tkir zehn, ishbilarmonlik yo`q.

Akbaralining siyosiy-tashkiliy jihatdan nihoyatda ojizligi, rahbarlik-rahnamolikka yaroqsizligi Miryoqubning otasi 1-2 oyga Karimga dam olishga ketganligida aniq bo`lib qoladi. Miryoqubsiz o`z yo`lini darrov yo`qotgan mingboshi ketma-ket xatolarga yo`l qo`yadi. Qishloqda boylar haddan oshib, dehqonlarga zulmni haddan oshiradilar. Oqibatda isyon boshlanib, Akbaralining mansabdan haydalishi

aniq bo`lib qoladi. Voqealarning bu silsilasi Akbaralining zaharlanib o`lishi bilan nihoya topadi.

Bir sintagmatik qatordagi Miryoqub va Akbarali ko`p jihatdan bir-birovlariga o`xshamaydilar, hattoki zid to`radilar. Buni quyidagi chog`ishtirishda aniq ko`rish imkoniyati bor.

Miryoqub

Kelishgan, ko`rkam,
Yoqimli qiyofaga ega

Xushchaqchaq, shirinso`z,
kirishimli
O`tkir aql, farosat egasi

Ishbilarmon, tadbirkor,
korchalon

Akbarali

Badbashara, beo`xshov,
xunuk-bedavo

Dag`al, qo`pol,
baqiroq
Omi, zehni lavozimi
darajasida emas

Bu xususiyatlarning
birortasiga ham ega emas

Ushbu qiyoslash bilan tanishib, Miryoqub har jihatdan mukammal, ideal inson, Akbarali esa barcha illatlarning, yomonliklarning midjasi degan fikr, xayolga borish mumkin, albatta. Biroq yuqoridagi qiyoslash jadvali bir yoqlama mazmunga ega bo`lib, badiiy matnning quyi qatlamlarida mazkur ikki obrazning botiniy, noma`lum xususiyatlari matniy tahlil jarayonida ochilib, oydinlashib boradi. Binobarin, biz ushbu ikki obrazning yangi jihatlarini e`tiborga olishimiz kerak bo`ladi. Ana shundagina ularning fe`l-sajiyasi, jamiyat, axloq, oiladagi o`rni, insoniylik darajasini batafsilroq ko`rsatib, izohlab ko`rsata olamiz.

Demak, yangi qiyos-chog`ishtirish, har bir xarakterning badiiy matn taraqqiyoti davomidagi o`zligini yangi bir - yangicha jadvalda ko`rsatishimiz kerak.

Miryoqub

Akbarali

Erining butunlay tashlab qo`ygani va Miryoqubning da`vati bilan ba`zan o`ziga loqaydligidin tahqirlangan "ko`ngil yozish" uchun islovotxonaga Poshshoxon dilxushlik istab pinhona borib tursa-da, o`z tasarrufidagi uning yoniga keladi, Miryoqub ayol hududda va chetda biror ayol yoki qizga ra`ini qaytarmaydi. yomon nazar bilan qaramaydi.

Noib to`raning dasturxonidan ko`p Noib to`raga ham Miryoqubga ham marta non-tuz yegan, undan ishonch bilan qaraydi, ularni o`ziga mehribonlik, samimiyat ko`rgan bo`lsa- do`st, maslakdosh deb biladi. da, uning yengiltak xotini (xonim) bilan olishishdan qaytmaydi.

Mingboshining vafotidan keyin undan Miryoqubning katta boyligi, qoladigan butun mol-mulkni qonuniy davlatidan foydalanishni xayoliga ham merosxo`rlarga bermay, Poshshoxon keltirmaydi. orqali o`z tasarrufiga olishni, oldindan rejalashtirib qo`yadi.

Kambag`al dehqonlarni qishloqning Qishloq odamlariga ortiqcha jabr-ikki boyiga qarshi qayrab qo`yadi. zulm qilmaydi, dehqonlar ham Keyinroq bunday harakat isyon mingboshiga o`zlaricha hurmat bilan boshlanishi, qon to`kilishi va

mingboshining mansabdan ketishiga qaraydilar.
sabab bo`ladi.

Tahlil va qiyoslashlar shundan dalolat beradiki, "Kecha va kunduz" badiiy maydonida birorta obraz ham bir yoqlama, tarafkashlik asosida ko`rsatilmagan. Bu badiiy hudud doirasidagi har bir qahramon, personaj voqealar rivoji oqimida harakat qilar ekan, o`zligini to`liq, har tomonlama ko`rsatadi, insoniy yoxud g`ayriinsoniy xususiyatlarini borligicha namoyon etadi.

Matn rivojining keyingi bosqichlarida Miryoqub va Akbarali xarakterida ro`y berayotgan yangi hodisalar, milliy tafakkurning uyg`onishi natijasida jiddiy sifat o`zgarishlari sodir bo`la boshlaydi.

Poyezdda Mariya bilan Moskvaga ketayotgan Miryoqub jadid harakatining taniqli namoyandalaridan biri Ubaydulla Xo`jayev bilan tanishadi. Bir necha kunlik muloqotlar uning ko`zini ochadi, u jadidchilik g`oya va ideallari mohiyatini anglab yeta boshlaydi.

Bunday keskin ruhiy-ma`naviy burilish, o`zgarish birdaniga, o`z-o`zicha sodir bo`lmaydi, albatta. Ancha oldinroq uning ruhiyatida birin-ketin qilayotgan xato, gunohlaridan iztirob chekish kayfiyati sodir bo`lgan edi.

U Noib to`raning xatoni huzuridan yana ko`rishib turishga va`da olib ketar ekan, xayolida beshafqat tergovchi paydo bo`ladi. Uni mingboshi, Noib to`raga nisbatan ko`rnamaklikda ayblaydi. "Biz Akbaralini Miryoqubga nisbatan odilroq deb bilamiz", deydi.

Bundan tashqari, ziyrak va mulohazalar Miryoqub Noib to`ra, xonim bilan bo`lgan suhbatlardan o`zi faoliyat ko`rsatayotgan, boy-badavlat bo`lishiga imkon yaratib bergan chirib, halokat yoqasiga borib qolganligini tushunib yetadi. Demak, najot, yangi yo`l, shu yo`lga boshlab kiradigan rahbar rahnamo kerak. U "pir tolib tariqat, domla topib masala. Zakunchi topib zakun so`rasam" degan fikr-qarorga keladi. Biroq u biladigan pir-Razzoq so`fining ustoz Eshon bobo muridining qizini mingboshiga uzatish orqali pul ishlab olgan subutsiz, e`tiqodsiz kimsa, domla

imomlar qo`rqqoq va mute, zakunchilar poraxo`r va munofiq kishilar. Ana shunday fikr-o`ylar, og`riqli mulohazalar Miryoqubni oxir-oqibat jadid dunyoqarashi, oqimi doirasiga olib kiradi. Lekin ana shunday taraqqiyparvar, yangi oqim-harakat ichida ham u xato-adashishlardan forig` ozod bo`la olish mumkin emas.

Yangi yo`lga kirgan Miryoqubning birinchi qabul qilgan qarori shundan iborat bo`ladiki, u musulmon xotinidan ajralib, islovotxonadan topgan yosh rus xotin (Mariya Ostrova Yevdokiya Kabilina)ga uylanadi hamda oldingi ayolidan tug`ilgan bolalari tarbiyasini unga topshiradi. Ana shundagina Yevropa tamadduni, taraqqiyoti omillarini chuqur o`zlashtirish va hayotiga tadbqiq etish mumkin.

Bunday xayol-maqсадni avval jadidlar, keyin esa sho`ro ziyolilari, amaldorlari amalga oshirishga urinib ko`rganlar. Jadidlarda-ku bunday urinish, harakat bir qadar ijobiy natija bergan, chunki ularning niyati har qalay balandroq edi. Sho`ro davrida esa butunlay teskari oqibatga olib keladi. "Yevropalashgan, ruslashgan" oilalarda ona tilini o`zlashtirmadilar, milliy qadriyat, urf-odatlardan butunlay uzoqlashib "na rus, na turk" bo`lgan yangi bir toifani vujudga keltirdilar.

Olis o`tmishda ham shunday tajribalar bo`lgan. Xitoy imperiyasi tashabbusi bilan "turk-chin" qo`shilmasi yuzaga keltirilgan. Bu ajabtovur genetik majmua Xitoy va Turon (Turk hoqonligi) orasida "shenma devor" vazifasini o`tagan, "Tabg`ach" deb nomlangan bu kabi turklar xitoyliklardan ko`ra ko`proq talofat yetkazgan.

Miryoqub eski va yangi xato, adashishlariga qaramasdan roman matni kengliklari, paradigmatic, sintagmatic, binar oppozitsiya munosabatlari majmuasida, eng avvalo, harakatdagi, yo`l-najot izlaydigan inson, jonli, tabiiy xarakter sifatida namoyon bo`lgan. Bu obraz badiiy-estetik jihatidan puxta-mukammal ishlanganidan kitobxonda kuchli taassurot uyg`otadi.

Matn intihoga yaqinlashayotganda, odatda turg`un-yakrang tabiiy qiyofada ko`rinuvchi Akbarali ruhiy olamida ham ma`lum darajada syujetga o`zgarishlar namoyon bo`la boshlaydi. Miryoqub Qrimga ketib, rahnamo-maslahatchisiz qolgan mingboshi ko`pdan-ko`p sinov, qiyinchiliklar girdobida qoladi. Boylarning qayg`urishi, ezilgan -jabrlangan kambag`al dehqonlarning tengsiz kurash

maydoniga kirishi - isyon Akbaralini o'ylashga, bo'lib o'tayotgan ijtimoiy hodisalar mohiyatini anglash uchun urinishga olib keladi. Ammo buning iloji nogahoniy o'lim uchun azobli mulohazalariga xotima yasaydi.

Miryoqub Akbarali -Zunnun Hakimjon sintagmatik qatorida Zunnun obrazining ham alohida o'ziga xos o'rni bor. U Miryoqubday tadbirkor, ishbilarmon, Akbaralidek amaldor emas. Bir tasodif (ehtimol, Miryoqubning tavsiyasi - romanda bu haqda hech nima deyilmagan) Noib to'ra dargohiga xizmatga o'rnashgan. Ziyofat chog'ida xonimning eslashicha: "bizning hovlimizga kelgan vaqtida 12-13 yashar bola ekan. Endi mana, kap-katta kishi bo'ldi" (161-bet). Bir-ikki kun oldin Miryoqub bilan suhbatda Zunnun o'zi haqda shunday degan edi: "Men qirqqa borib qoldim. Haligacha bitta boshim ikkita bo'lgani yo'q" (149-bet).

Xonim Zunnunning "ishqiy" munosabatlariga hali uncha ko'p bo'lmagan. Oshpazning Miryoqubga aytishicha, "bir-ikki yildan beri ahvol shu" (151-bet). Roman badiiy tizimida Zunnunning na portreti, na ruhiy-ma'naviy olami tavsifi berilgan. U ayrim badiiy bo'laklardagina ishtirok etadi - epizodik obraz. Zunnun obrazi matn g'oyaviy-estetik konsepsiyasida milliy va imperiya tanazzulini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Qirqqa yaqinlashib ham uylanolmagan Zunnunning "og'zidagi tayyor osh"ni-xonimni Miryoqubga "taqdim etishi kitobxon va matn tadqiqotchisini bir necha faraz-taxminlarga kelishga sabab bo'ladi:

1. Zunnun xizmat qilayotgan chor imperiyasi muqarrar halokat yoqasiga kelib qolgan. Bu tuzum vakillari, namoyandalarini juda yaqin kelajakda muqarrar jazo -intiqom qo'shib turibdi. Binobarin, "cho'kayotgan kemadan tezroq qochish, o'zni qutqarish lozim. Buning uchun yo'l ko'rsatuvchi sardor, dono maslahatchi lozim. Dunyoqarashi, imkoniyat doirasi tor bo'lgan Zunnun uchun Miryoqub ana shunday "najot farishtasi" bo'lib tuyuladi. Xonim vositasida aysh-ishratni xush ko'radigan Miryoqub qalbiga yo'l topish mumkin.

2. Serqichiq, ishratparast xonim tizginsiz ehtirolari, tinimsiz noz-ishvalari bilan ancha bosiq va ehtiyorkor Zunnunning ko'ngliga urib bo'lgan.

Buning ustiga, u kimsan - Noib to`raning xotini. Ahvoldan xabar topib, Zunnunni jalh ustida otib tashlash va hech bo`lmaganda uzoq muddatga qamatib yuborish hech gap emas - biror kimsa joniga oro kirolmaydi. Bu farazni uzoq yillar oilasiz yashagan Zunnunning birdan uylanish fikriga kelib to`xtashi ma`lum darajada.

3. U Noib to`ra xonadoni xizmatida bo`lib, bu dargohdan ozmi-ko`pmi marhamat ko`rgan bo`lsa-da, har holda karim va buyuk Turkiston farzandi. O`z yurtini kimlar asoratga solgani, son-sanoqsiz uqubat keltirganini biladi. Ong osti qatlamlarida yashirinib, yuzaga chiqishini qo`shib yotgan g`azab, intiqom tuyg`usi ma`lum darajada o`z kuchini ko`rsatadi. Xonimning buzuqlik ko`chasiga yanada ko`proq kirishi, vatandoshlari quchog`iga kirib "xizmat"da bo`lishni ko`rish juda zavq va qoniqish hissasini beradi.

Bu taxminga ham badiiy matndan bir qadar isbot topish mumkin. Oliynasab xonimning "madaniyatsiz sart", bir xizmatkor bilan qiliqlarini ko`rgan Miryoqub shunaqa bir xulosaga keladi: "Imperiyasi chiribdi...Ish qilsa ham hech kim tangir qolmaydi" (154-bet). Miryoqub Noib to`ranikidan chiqib, mehmonxonaga - Akbarali oldiga kelganda, "chirigan imperiya" haqidagi yashirin mulohazasini endi ochiq -baralla (halokat oldidagi davlat-saltanatdan kim ham qo`rqib o`tirardi:

"Turing, dodho! Xirmonga o`t ketdi!!!" - bu obrazli ramziy gap bo`lib, keyingi xitoblarning sharhi beriladi: (155-bet).

"Imperiyaga o`t ketgan ekan. O`chirishgani borib edim" (155-bet).

"Imperiya o`zi ham shar bo`yicha kelib qolgan emish" (155-bet).

Imperiya uning mustaqilligi uchun mansub zobit, amaldor, xizmatchilarning axloqi, oilasi, o`z qobig`i doirasidagini tanazzulga uchrab qolmaydi. Bunday inqiroz, tabiiyki, uning mastamlakalaridagi axloq, hayot tarzi, urf-odat, qadriyatlariga ham halokatli, zararli ta`sirini o`tkazadi. Bunday dahshatli inqiroz mustamlaka (Turkiston) vakillari bo`lgan Miryoqub, Akbarali, Zunnun, Poshshoxon, Sultonxon tabiati, a`molida o`z izini, muhrini qoldirgan.

Miryoqub -islovotxonaning doimiy mehmoni, ichkilikdan yuz o`girmaydi. Poshshoxon, xonim bilan g`ayriqonuniy aloqada bo`ladi. Holbuki, islom shariatida zino va xamr (mast qiluvchi narsa) qat`iy man etilgan.

Ichkilikbozlik va zino illatlari Akbarali, Zunnunni chetlab o'tmagan. To'g'ri, bunday illatlar chor bosqinigacha ham Turkistonda mavjud bo'lgan. Inson bor ekan, gunoh, xato unga muttassil hamroh bo'ladi. Lekin shu narsa aniqki, yuqorida qayd etilgan illatlar chor Rossiyasi hukmronligi davrida ommaviy tus olib, islomiy axloq, tartiblarni ichdan yemira boshladi. Bundan halokatning birinchi sababi shunda ediki, hokimiyat, boshqaruv tepasida turgan shaxslarning o'zlari axloqan tubanlikka ketgan kimsalar bo'lgan. Ikkinchidan esa chor ma'murlari mahalliy aholi orasida shunaqa kasofatli ishlarni tarqatishga uringanlar: islovotxonalar ochilgan: ularga dastlab imperiyaning Yevropa qismidan vakilalar keltirilgan bo'lsa, ko'p o'tmay mahalliy ayollar ham jalb etilgan. Ichkilik sotuvchi do'konlar ko'paytirilgan. Bu haqda zikr etilgan ziyofatda xonim shunday deydi:

"Bilasizmi, sartlar ham endi aynib qolishdi. Ko'p ichkilik ichishadi. Mastlik qilishadi. Yangi shahar buzuqxonalarida bir-biriga nigoh solganlari ko'p bo'lar ekan. Mast bo'lib qolsa, sart juda yomon yovvoyi bo'lar ekan" (161-bet).

Mamlakat axloqini buzish milliy birlikni yo'qotish demakdir. Tarqoq, e'tiqodsiz aholini boshqarish juda oson. Qayerga boshlasa, o'sha yerga keta beradi. Buni mustamlakachi ma'murlar juda yaxshi bilishgan.

Biz yuqorida zikr etgan uchta faraz - nuqtai nazir o'zaro birlashtirilsa sintagmatik qatorning oxirrog'idan o'rin olgan Zunnun aka (roviy-muallif tomonidan shunday deb atalgan)ning tarzda namoyon bo'ladi.

Har holda Zunnunning Miryoqub, ayniqsa, xonimga qilgan "xizmat"lari behuda ketmaydi. Akbarali vafotidan ko'p o'tmay u mingboshilik lavozimini qo'lga kiritadi. Chor mustamlakachilik tizimi Miryoqub kabi serg'ayrat, ishbilarmon odamlarni emas, Akbaralidek ma'rifatsiz, qo'pol, Zunnundek tovlanuvchan, el-yurt nazariga tushmagan kishilarni mansab ko'chasiga o'tqazib qo'ygan. Chunki ular mute, mustaqil mushohada yuritishga noqobil, vatan, millat manfaatlaridan yiroq kimsalardir. Bunday puxta o'ylangan ayyorona siyosat sovet davrida izchil davom ettirilgan. Chunki sho'ro hukumati chor mustamlakachi harakatning davomchisi, merosxo'ri edi.

Hakimjon - sintagmatik qatordagi eng so`nggi obraz. Uning ham roman badiiy-struktur hududida matn g`oyaviy-estetik konsepsiyasida o`ziga xos o`rni, ahamiyati bor. U Akbarali mingboshining hovlisidagi hujralardan birida yashaydi. Savodxon, shu sababli mirzalik lavozimga loyiq deb topilgan. Xizmat taqozosiga ko`ra gazeta o`qiydi (o`sha davr dunyoqarashiga ko`ra gazeta mutolaa etish ziyolilik alomati, bilimdonlik belgisi deb tushunilgan).

Ijtimoiy mavqeidan kelib chiqqan holda mingboshiga, ma`lum darajada Miryoqubga qaram. Ular bilan murosa qilish, ta`na, dashnomlarini eshitishga majbur. O`z vazifasini sidqidildan bajaradi. Miryoqub safarga ketgach, uning xarakteridagi yangi bir jihatlar ko`rina boshlaydi. U mingboshining rahbariyat faoliyatiga noqobilligi, na siyosat, na ma`rifatdan xabardorligini anglay boshlaydi. Bunga, albatta, o`qiydigan gazetalari, shuningdek, taraqqiyparvar tafakkurga ega tatar Hasanov kabi ilg`or ziyolilarning ta`siri sababdir.

Matn badiiy taraqqiyoti davomida Hakimjon xarakteri sekin-asta bo`lsa-da, o`zgargan holda namoyon bo`ladi. Bu tadrij, evrilishlar quyidagi tartibda ko`rinadi:

1. Mingboshiga sodiq, ishonch bilan qaraydigan, uning topshiriq va buyruqlarini astoydil ijro etuvchi itoatkor, intizomli xodim.

2. Akbaralining uchinchi xotini - "yosh va zoriqqan" Sultonxonning jazmani (Zeboga uylangan mingboshidan umidini uzgan Sultonxon bo`ydoq va ishqiy munosabatlarda g`o`r Hakimjonni yo`ldan urib, uni o`ziga rom etib oladi).

3. Zamonaviy dunyoqarash, ilg`or tafakkuri, ongi, maqsad-intilishlari o`zgarayotgan inson.

Ushbu tadrijiy jarayonning ikkinchi bosqichi tahlil davomida boshqa bir yangi paradigmatic qatorni yuzaga keltiradi.

Miryoqub

Zunnun

Hakimjon

Ushbu tik (gorizontal) qatordagi uch obrazni "valene`matga xiyonat" - o`zgalarning xatosi bilan g`ayrisha`iy munosabat aloqaga kirishish bog`lab

turadiki, biz oldinroq Miryoub-Poshshoxon, Miryoqub-xonim; Zunnun-Xonim aloqalari misolida muayyan mulohazalarni aytib o`tgan edik.


Shunday qilib, tahlil jarayonidan ma`lum bo`ladiki, Miryoqub -Akbarali-Zunnun-Hakimjon sintagmatik qatoriga kirgan badiiy obrazlar matn doirasida romanning g`oyaviy-falsafiy, badiiy-estetik mohiyatini ochish, oydinlashtirishda muhim vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilganlar, matn bo`laklari orasidagi aloqadorlikni kuchaytirib, uning bir butunligini ta`minlashga o`z hissalarini qo`shganlar.

2.3.Binar oppozitsiya

Binar oppozitsiya badiiy matn bo`laklarida ifoda topgan belgilar orasidagi zidlikka asoslangan. Bunday qarama-qarshilik "Kecha va kunduz" romanida quyidagi shakllarda zohir bo`lgan.

- 1) tasvirlararo zidlik;
- 2) ta`limot, oqim, guruhlar o`rtasidagi qarama-qarshi munosabat
- 3) xarakterlararo ixtilof

Tasvirlararo zidlik roman badiiy matnida birinchi navbatda ko`zga tashlanadigan munosabatdir. "Kecha va kunduz" bahor tasviri bilan boshlanib, qish fasli haqidagi xabar bilan yakun topadiki, bunga adabiyotshunoslar e`tiborni qaratganlar va bunday tasvirlarning ramziy mohiyatga ega ekanligini ko`rsatganlar. Bunday zidlik quyidagi chizmada o`z aksini topgan



Bahor ifodasining denotativ (birlamchi) ma`nosi: roman voqea tizimining aynan ana shu fasldan boshlanishi haqida axborot berish. Bunday xabar muayyan bir fikr, qarorga kelish uchun asos bo`ladi.

Matn muqaddimasidagi bahor tasviri:

"Har yilda bir keladigan bahor sevinchi yana ko`ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dilgiragan tanlariga iliq qon yugurdi.

Tollarning ko`m-ko`k sochpopuklari qizlarning mayda o`rilgan kokillariday selkillab to`kilmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib boqqan suvlarning g`amli yuzlari kuldi, o`zlari horg`in-horg`in oqsalar-da, bo`shalgan qul singari erkinlik nash`asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog`ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko`rina boshladi. Birinchi ko`ringan ko`klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash`asini berdi. Bultur ekilib ko`p qoshlarni qoraytirgan o`sma ildizidan yana bosh ko`tarib chiqdi... Muloyim qo`llarda ivib suvga aylangandan keyin go`zal ko`zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko`rar ekan bu ko`kish! Erkaklarning gullik do`ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularni sochlari,

gajaklari va ro`sh popuklari bilan hazillashib o`ynagan salqin shabada... Ko`klam nash`asi bilan sho`xlik qiladi.

Hayot nega bu qadar go`zal va shirin bo`ladi bahorda!" (21-bet).


Ushbu tasvir romanning bosh qahramonlaridan biri bo`lgan Zebining shu ko`klamdagi xursandchiligi, muhit ko`tarinkiligi, hayotga, muhabbatga tashna ko`ngli ifodasi bilan birgalikda alohida paradigmatic qatorni tashkil etadi.

Binar oppozitsiya (zid munosabat) nuqtai nazaridan esa quyidagi qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi:

Go`zal

bahor

(konnotativ ma`no)



Qahraton qish

(konnotativ ma`no)

- 
- 1) mantda ifoda topgan chor mustamlaka zulmi, nihoyatda qashshoq yashayotgan bechora xalq;
 - 2) xotin-qizlarning haq-huquqsizligi, sevgi asosida oila qurishdan, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishdan mahrumligi;
 - 3) mamlakatda keng quloch yozib, mustahkamlanib olgan mutaassiblik, jaholatning zo`rligi;
 - 4) Zebining keyingi tadqiri, majburiy 4-xotin sifatida uzatilishi, nohaq qamalishi.

Yuqoridagi chizma izohlardan ma`lum bo`ladiki, "Kecha va kunduz" matni boshdan oxir zidlik munosabatlari asosida tashkil topgan. Paradigmatik, sintagmatik munosabatlar ham aslida mana shu zidlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

"Kecha va kunduz" romanida binar oppozitsiyaning yuzaga kelishi jadidchilik harakati tasviri bilan bogʻliq. Bunday zidlik quyidagi oʻz badiiy ifodasini topgan:

Jadidchilik mafkurasi	↔	chor mustamlakachilik idorasi siyosati (Noib toʻra, xonim, Ignyatyuk)
	↔	diniy mutaassiblik (eshon, uning muridlari, shu jumladan, Razzoq soʻfi)
	↔	qishloq, zamondan orqada qolgan oʻqitish-maorif usullari

Binar oppozitsiyaning badiiy asar konfliktidan asosiy farqi shundaki, unda qarama-qarshiliklar bevosita - yuzma-yuz boʻlishi shart emas. Bir-biriga zid dunyoqarash, mafkura, taʼlimot, nuqtai nazarlar badiiy matnning turli joylarida mavjud boʻlishi, ular oʻzaro toʻqnash kelmasalar-da, umumiy matn doirasida binar oppozitsion zidlik yuzaga kelishi mumkin.

Jadidlarning milliy kapitalni rivojlantirish, mahalliy ishbilarmonlarni sanoat ishlariga jalb etish, yerlik xalq ichidan zamonaviy mutaxassislarni yetishtirish haqidagi fikr-mulohazalari, bu boradagi harakat-urinishlari, tabiiyki, chor mustamlakachilik siyosatiga zid. Shu boisdan podsho hukumati Turkistonda jadidlarga qarshi izchil siyosat olib borgan: muhalliy gazeta, jurnallarni yopgan, yangi usuldagi maktablar ochilishi va faoliyat yuritishiga baʼzan pinhona, baʼzan oshkora qarshilik koʻrsatgan.

Diniy-mutaassiblik, xurofot Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maʼrifiy taraqqiyotiga katta gʻov boʻlgan. Bu hodisaning salbiy oqibatlarini jadidlar juda yaxshi tushunganlar. Matnda kerakli eshonning aldamchiligi, oʻz moddiy manfaatlari, shon-shuhrat yoʻlidagi urinishlari, Razzoq soʻfi singari muridlarning unga ergashib xato yoʻlga kirishi aniq tasvir va psixologik tahlillar orqali ochib koʻrsatilgan.

Romanning asosiy qahramonlaridan biri Zebi eshonning manfaatparastligi qurboni boʻladi. Chunki Razzoq soʻfi dastlab qizini uchta xotini bor, "oʻzi ham

qarib qolgan mingboshiga berishni istamaydi. Shundan so`ng Akbaralining suyangan odami, uddaburon Miryoqub pul, sovg`a-salom yordamida Eshonboboni rozi qiladi. "Pir"ning istagiga "murid" qanday qarshi bora oladi. Rozi bo`lmay, "men ko`p olmadim", deydi so`fi xotiniga. Ammo baribir rozi bo`lishga majbur. Bunday tengsiz nikoh oxir-oqibat quyidagi fojialarga olib keladi:


1) Zebi Mingboshiga zahar berib o`ldirishda ayblanib, yetti yil Sibirga surgun qilinadi;

2) Razzoq so`fi aqldan ozib, ustozi - eshonni bo`g`ib o`ldiradi, uning pullarini o`g`irlab, izziz yo`qoladi (pul o`g`irlashi ham telbaligining bir alomatidir: u shu pullar qizimni qamoqdan chiqaradi, deb o`ylagan);

3) Qizining qamalganini eshitgan Qurbonbibi (Zebining onasi telba bo`lib qoladi (Razzoq so`fining aqldan ozishga vaqtinchalik bo`lishi mumkin, ammo xotinning devonaligi davomli, hatto umrbod).

Shunday qilib, "sodda shayx"ning tamolaparastligi bir oilaning barbod bo`lishiga olib keladi.

Roman badiiy matnidagi xarakterlararo binar oppozitsiya ancha salmoqli, rang-barang bo`lib, quyidagi ko`rinishlarda namoyon bo`lgan.



Biz ushbu fasllarda ushbu xarakterlarning asosiylari haqida fikr-mulohazalar bildirganimiz sababli tahlilni shu o`rinda to`xtatamiz.

Tahlil va talqinlardan shu narsa ma`lum bo`ladiki, binar munosabatlar badiiy matn konsepsiyasini oydinlashtirishda katta ahamiyatga ega.

Ikkinchi bob yuzasidan xulosa qiladidan bo'lsak, ushbu bobda "Kecha va kunduz" badiiy matnidagi struktural belgilar imkon qadar ochib berishga harakat qildik.

- Asardagi to'rtta paradigmatic qator aniqlanib, qaysi xususiyatiga ko'ra bitta paradigmaga mansub bo'lishi mumkinligiga e'tibor qaratildi;
- Sintagmatic munosabatning o'zi nimaligi va badiiy matndagi sintagmatic qatotlar aniqlandi;
- Ikkinchi bobning uchinchi faslida binary opposition munosabatlar tadqiq qilindi.

III BOB BADIY MATNDAGI KODLAR

3.1 Matn tizimida kod

Badiiy matndagi kod atamasi faqatgina strukturalizm fanigagina xos. Kod bu - badiiy matndagi yashirin fikr yoki g'oyadir. Kod matnning qayerida uchraydi degan savol tug'ilishi mumkin? Aslida butun bir matn (she'r, doston, roman, drama, hikoya...) umumiy holatda bitta koddan iboratdir. Butun matnda bitta yoki bir nechta kod bo'lishi mumkin. Matniy struktural tahlil davomida mana shu kodlar rasshirovka (shifrnı ochish) qilishi lozim. Badiiy matnda ko'plab kodlar bo'ladi. Ularning bir qismi strukturalistlar tomonidan quyidagicha nomlangan. Narrativ kod, jumboq kodi, xronologik kod, tabu kodi, ilmiy kod, axloqiy kod, ramziy kod, tarixiy xod, murojaat kodi kabi. Badiiy matnda nisbatan ko'proq uchraydigan ayrim kodlarning izohini berib o'tamiz.

1. Narrativ kod - bu qiziqish kodidir. Har qanday badiiy matn sarlavhasida albatta narrativ kod bo'ladi. Matn har doim e'tiborda bo'lishni xohlaydi, kitobxonlarning jalb qilinishini istaydi. Masalan, "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Kecha va kunduz", "Qizil va Qora", "Urush va tinchlik" kabi. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning "O'zbekiston" she'rida shunday satrlar bor.

Amerika sehrli diyor,
Uxlar edi Kolumb ham hali.
Osmon ilmin yaratdi ilk bor
Beruniyning aql mashali.
Kolumbda bor alamim manim.
O'zbekiston vatanim manim!

Ushbu parchadagi Amerika sehrli diyor, Kolumbda bor alamim manim jumllarida narrativ kod bor. Chunki Beruniy o'zining "Hindiston" asarida Hindistonga qilgan sayohatida hindlar unga okean ortida bir quruqlik borligini aytishgan.

Yoki Abdulla Qahhor bir hikoyasini “Dahshat”deb nomladi.Nima uchun boshqa nom emas,aynan DAHSHAT deb atadi,hikoyaning butun bir dahshati nimada edi? O`z-o`zidan o`quvchini nomning o`zi qiziqtirib qo`yadi. Tohir Malikning “Shaytanat” asarining nomlanishida ham narrativ kod bor.

2.Jumboq kodi - bunda biror voqea,hodisa yoki bahs kabilar haqida axborot beradi.Masalan, Abdulla Qahhorning “O`g`ri” hikoyasini barchamiz sevib o`qiganmiz.Anashu hikoyadagi kampir tong qorong`usida xamir qorgani turishi va ho`kizidan xabar olishi hamda ho`kiz yo`qolganligi haqida bahslar nazarda tutiladi.Ma`lum bo`lgan voqea haqida xabar beradi.

3.Xronologik kod - bunda badiiy matndagi vaqt yoki vaqtning ma`lum bir bo`lagi beriladi.Klassik romanda ko`pincha matn muqaddimasida vaqt ko`rsatilgan.Bo`limning boshida yoki oxirida aniq vaqt ko`rsatilgan bo`ladi.Masalan ,“O`tkan kunlar” romaning boshida yil,oy,kun aniq ko`rsatib o`tilgan.

Boshlanishida_____hijriy 1264-yil

Yakunida_____hijriy 1277-yil

Oybekning “Navioy”romanida Gavharshodbeginning madrasasi tasvirida aniq vaqt berilmagan,lekin o`sha vaqtda gul ochilganligi va daraxtlar yashnaganidan bilsa bo`ladi.**Bahor vaqti.**

Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug`bek” tragediyasida Mirzo Ulug`bekning fojiali o`limi vaqti quydagicha talqin qilinadi. “Samarqand atrofida qishloq.**Namozgar vaqti.G`ira-shira qorong`i.Kuz fasli.**Otamurodning hovlisi.Ulug`bek dadil turib hovlidan chiqmoqchi bo`ladi.Ammo Ulug`bek qaysi tomonga yo`nalsa,devor orqasida ,eshik oldida,daraxt tagida,panjara yonida nayzalik sipohlar pistirmada turgani ma`lum bo`ladi.Sipohlar uning yo`lini to`sib,hovlidan chiqarmaslik uchun qurshovga olinganligi ayon bo`ladi.”¹

Matnning yili xatto kuni ham asar xronologik vaqti kodda yashirin bo`ladi. Xranatop ham deb nomlanadi.Unda asosiy ikki unsur inobatga olinadi.

1.Vaqt masalasi 2.Joy masalasi .

¹ Olimov.S va boshqalar 8-sinf darslik.T,- “G`ofur G`ulom” nashriyoti ,208-bet

Baxtin aytganidek, badiiy asarning eng birinchi elementi xronotopdir.

4.Tabu kodi - bu taqiqlanishni bildiruvchi koddir. Badiiy matnda dunyoqatash, milliy mentaliteti, tarixiy davr urf odatlari yoki xurofot tufayli biror bir nomni, kishilar nomi yoki predmet nomini ochiq aytishning imkoni bo'lmagan. Manashu imkonsizlik tabu kodidir. Masalan, Hazrat Mir Alisher Navoiy o'z onalarining nomini birorta asarlariga yozib qoldirmaganlar. Negaki unga tabu qo'yilgan. O'sha paytda ayollarning nomini har qayerda yozish mumkin bo'lmagan. Yoki bo'lmasa Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasini olib ko'raylik. Unda Sotiboldining xotini og'rib qoldi deb boshlanadi. Biroq Sotiboldining xotining nomi tilga olinmaydi. Bu Tabu kodidir.

5.Ilmij kod - matndagi ilm-fanga oid fikr atama va nuqtayi nazarlarni ifodalaydi. Masalan Asqad Muxtorning "Poeziya" asarida shunchaki suv H₂O tarzda keltirilishi ilmiy kodga misol bo'ladi. Faxriyorning "Giometrik bahor" sheri to'plamida ham bir nechta giometrik figuralar chizmasidan foydalanilgan she'rlar bor.

6.Axloqiy kod – bunda muayyan bir xalqning axloqqa oid qarashlari muomalasi, axloqiy olami ifodalanadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Kumushbibining o'limi oldidan Yusufbek Hojiga qilgan harakatini esga olaylik, zaxarlanib o'lim bilan olishayotgan Kumushbibi qaynotasi Yusufbek Hojikirib kelishi bilan o'rnidan turmoqchi bo'lgani axloqiy koddir.

7.Ramziy kod – bu matnda ko'p qo'llanadigan badiiy matinni taminlaydigan koddir. Adabiyotshunoslikda istiora, tashbeh deb ataladi. Masalan,

Kecha kelgumdur debon ,ul **sarvi gulro`** kelmadi ,

Ko`zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi.

XX asr o'zbek she'riyatining zabardast vakillaridan biri Shavkat Rahmon uslubi o'ziga xos istioralarning quyuq qo'llanishi bilan ajralib turadi. Shoir uslubidagi bu o'ziga xoslik, bir tarafdin, Sharq mumtoz she'riyati; ikkinchi tarafdin esa, ispan she'riyatining samarali ta'siri bilan izohlanadi. Chunki she'riyat muxlislari Shavkat Rahmonning ispan shoirlarining she'rlarini bilvosita til orqali emas, asliyatdan tarjima qilganligini juda yaxshi bilishadi.

“Hulvo” she’riy to’plamiga kirgan she’rlarning aksariyati tarkibida ham ko’plab istioralarni uchratish mumkin. “Bahorga qasida” she’rida quyidagi istiora qo’llangan:

*Bahor, isming qanday ajoyib,
Hayot bo`yi kelur ismingdan.
to`qson to`qqiz giyoh suvida
Chayqalayotgan nozli jismingdan*¹⁷.

Bahor – go’zal, matunkor fasl. “Bo’yi” so’zining asl ma’nosi hid, ifor, is demak. Misradagi “hayot bo’yi” istiorasida shoir erta bahorda uyg’onayotgan tabiat va uning bag’ridagi turfa chechaklarning nozik iforini birvarakayiga ifoda etgan. Lirik qahramon to’qson to’qqiz giyohning iforlarida chayqalayotgan bahor tasviri orqali kechgan va kechayotgan o’z umrining sabolari, bo’ylari, hidlarini tuygandek bo’ladi. Shoir bahorning xush bo’ylarini ezgulikning munavvar nasimlari timsolida bizga taqdim etayotir.

Keyingi – “Shabi xayol” she’riga e’tibor qarataylik:

*...Hazar qilhaqorat zarralarini
mukofot sanagan xotirasizdan
U qaysi tomonga yursa, bari bir,
dod yoki haqorat qolar izidan.*

Bu matnda bizni qiziqtirgan element – “haqorat zarralari” birikmasidir.

Fizikada zarra so’ziga shunday ta’rif berilgan: “Oz sonli eelementar zarralardan tashkil topgan modda ulushlari”. Bunga tutun zarralari, chang zarralari, havodagi zarralar, suv zarralari, molekulalar, atomlar, yadrolar, noklonlar va boshqalar kiradi.

Haqorat – mavhum tushuncha, uni ko’rish, ushlash mumkin emas. Ammo shoir dastlab haqoratni moddiy, fizik jism sifatida tasavvur qilgan, keyin esa bu so’zni “zarralari” so’zi bilan biriktirgan. Mazkur istioraviy birikma matnda “anglanmagan haqorat” ma’nosida kelgan. Chunki haqoratni mukofot deb qabul qilish uning mohiyatini tushunmaganlik holatidagina mumkindir.

¹⁷ Раҳмон Ш. Сайланма. – Т., Шарқ, 1997. – 3-б.

8.Tarixiy kod –matn bo`laklarida moziyga oid ma'lumot, tarixiy shaxs nomlari tilga olinadi.Masalan, Abdulla Oripovning “O`zbekiston”qasidasidagi quydagi jumlar bor.

Qotil qo`li qilich soldimast
Quyosh bo`lib uchdi tilla bosh.
Do`stlar,ko`kda yulduzlar emas,
U Ulug`bek ko`zidagi yosh.

Ushbu satrlarda Ulug`bek Mirzoning o`ldirilishi nazarda tutilgan.Yoki o`g`li Abdulatif otasiga qarshi isyon ko`targani uning buyrug`i bilan Ulug`bekning qatil ettirilishi, marhum shoirimiz Muhammad Yusufning Ulug`bek tilidan aytgan quydagi so`zlarida asl haqiqat sifatida jaranglaydi.

Yulduzlarda edi nigohim,bilmadim ne edi gunohim...
Men dardimni kimga aytaman.
Qancha g`amga botmagan edim,qancha og`u yutmagan edim...
O`z bolamdan kutmagan edim...men dardimni kimga aytaman.¹

9.Murojaat kodi - badiiy matn birliklarida biror shaxs narsa va jonzotlarga murojaat qilinadi.Masalan,quydagi Rauf Parfi qalamiga mansub “Ona tilim”she`ridan olingan parchaga e`tibor qilaylik,

Oftob / farzandidir / oltin dalalar,/
Oftob / sochqi sochar / bosh uzra balqib./
U sening tilingda / aytar allalar,/
Oftobdek ardoqli / ey ona xalqim./

Ayrim paytlarda matnning bir bo`lagidagi kod keyingi bo`laklarda davom ettirish mumkin.Tahlil paytida bunday holatda kod zanjirini yaratish kerak.

10.Etnografik kod - xalqning milliy mentalitetiga xos an`analar, qadriyatlar aks ettiriladi. “Kecha va kunduz” romanining bahor tarifi bilan boshlanish qismida etnografik kodning ajoyib namunasini ko`rish mumkin.Qizlarning qoshiga ko`rk bag`ishlagan o`sma, erkaklarning gulli do`ppisi,

¹ Olimov.S va boshqalar 8-sinf darslik.T,- “G`ofur G`ulom” nashriyoti ,215-bet

gajak sochlar, ro`mol popuklari o`zbek xalqiga xos qarashlardir. Ayniqsa xalq og`izaki ijodida etnografik kodga yuzlab, balki minglab misol topishimiz mumkin.

Xulosa qiladigan bo`lsak, har bir asarda bitta va bir nechta kod bo`ladi. Badiiy matinni tadqiq etganingiz sari yangi kodlar ochilaveradi.

3.2 “Kecha va kunduz” romani badiiy matnidagi kodlar

Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon XX asr she`riyatining yirik vakili, o`zbek nasri, dramaturgiyasi, tanqidchiligiga katta hissa qo`shgan mutafakkirdir. Cho`lpon qator lirik she`rlari va hikoyalarida o`zbek xotin-qizlarining feodal o`tmishidagi taqdirini keng tasvir va tahlil etgan. Ana shu g`oyalarini umumlashtirib, jamiyatda xotin-qizlarning huquq va erkinliklari qalamga olingan. Jamiyatni tag-tomiri bilan isloh qilishga qaratilgan "Kecha va kunduz" romanini yozishga kirishdi.

Cho`lpon “Kecha va kunduz” romanini 1935-1937-yillarda yaratgan. Bu roman o`zbek millatining badiiyatda aks etgan solnomasidir. Romanda aks ettirilgan voqea 1-jahon urushi endigina boshlangan kezlarda O`zbekistondagi viloyatlardan birida bo`lib o`tadi. Romandagi qahramonlardan birining: "Biz yaqindagina eshon to`poloni bo`lib o`tgan joydan uncha olisda emasmiz" degan so`zlariga qarab, voqea Andijon viloyatining Dukchi eshon qo`zg`aloni bo`lib o`tgan Marhamat tumaniga yaqin bir joyda bo`lib o`tgan deb aytishimiz mumkin.

Bu davr o`zbek xalqining ikki tomonlama zulm ostida ezilgan davri edi. Mahalliy boylar bu davrda rus mustamlakachilari bilan og`iz-burun o`pishib, o`z xalqining tarixiy taraqqiyoti haqida emas, uni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy qoloqlikdan xalos etish to`g`risida emas, balki o`zlarining rohat-farog`atlari, moddiy farovonliklari haqidagina jon kuyuntirishar edi! Feodal tuzum va mustamlakachilik sharoitida xalq to`g`risida o`ylovchi, uning qiyin, mashaqqatli hayotini yaxshilash haqida qayg`uradigan biron siyosiy kuch mavjud emas edi. Yozuvchi ana shu tarixiy davrni badiiy tasvir va tahlil etish maqsadida asarni yozgan. Bu voqea Zebi timsolida ochib berishga qaratilgan.

Bu asarga "O`tkan kunlar asari darajasida" deb baho berilgan. U o`zbek adabiyotidagi ilk roman-dilogiya bo`lib, ikki kitobdan iborat. Birinchi qismi "Kecha" 1933-1934 yillarda Moskvada yozilgan. Dastlabki boblari 1935- yilda Toshkentdagi adabiy jurnalning 1-sonida bosilgan, asar 1936-yilda to`liq holda nashr etilgan. Asardagi voqealar ilk bahorda boshlanib, qish chillasida tugaydi. Cho`lpon romaniga "Hamal keldi - amal keldi" maqolini epigraf qilib olgan.

“Kecha va kunduz” romani badiiy matndagi kodlarni o`rganamiz.

Kod atamasi faqatgina strukturalizm fanigagina xos. Kod bu - badiiy matndagi yashirin fikr yoki g`oyadir. Kod matnning qayerida uchraydi degan savol tug`ilishi mumkin? Aslida butun bir matn (she`r,doston,roman,drama,hikoya...) umumiy holatda bitta koddan iboratdir.Butun matnda bitta yoki bir nechta kod bo`lishi mumkin. Matniy struktural tahlil davomida mana shu kodlar rasshirovka (shifrnı ochish) qilishi lozim. Badiiy matnda ko`plab kodlar bo`ladi.Ularning bir qismi strukturalistlar tomonidan quyidagicha nomlangan. Narrativ kod, jumboq kodi, xronologik kod, tabu kodi, ilmiy kod, axloqiy kod, ramziy kod, tarixiy xod, murojaat kodi kabi. “Kecha va kunduz” badiiy matnda nisbatan ko`proq uchraydigan ayrim kodlarning izohini berib o`tamiz.

Yuqorida ta`kidlaganimizdek, "Kecha va kunduz" romani bahor fasli ta`rifi bilan boshlanadi. Ana shu ta`rifda badiiy matnda qanday struktur kodlar borligini tahlil qilmoqchimiz.

Cho`lponning "Kecha va kunduz" romanining I bobidan olingan quyidagi badiiy matnni keltirib, kodlar haqida fikr yuritamiz va ayrim kodlarni topib izohlaymiz.

"Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko`ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi.

Tollarning ko`m-ko`k soch popuklari qizlarning mayda o`rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqsa suvlarning g`amli yuzlari kuldi, o`zlari horg`in-horg`in oqsalar-da, bo`shalgan qul singari erkinlik nash`asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog`ochlarning uchlarida yakka - yakka qushlar ko`rina boshladi. Birinchi ko`ringan ko`klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash`asini beradi. Bultur ekilib ko`p qoshlarni qoraytirgan o`sma ildizidan yana bosh ko`tarib chiqdi. Muloyim qo`llarda ivib, suvga aylangandan keyin go`zal ko`zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko`rar ekan bu ko`kat! Erkaklarning gullik do`ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro`mol, popuklari bilan hazillashib o`ynagan salqin shabada... ko`klam nash`asi bilan sho`xlik qiladi.

Hayot nega bu qadar go`zal va shirin bo`ladi bahorda?! (21)

Romanning nomlanishiga e`tibor qarataylik. Kecha va kunduz. Bevosita nomlanishning o`zida ham ikkita (xronologik va narrativ) kod yashiringan.

1.Xronologik kod - bunda vaqt masalasi inobatga olingan. Kecha va kunduzni ma`lum paytni ifodalashiga nisbatan xronologik kod sirasiga kiritishimiz mumkin. "Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko`ngillarni qitiqlay boshladi." Bunda xronogik kod mavjud.Tahlilda badiiy matndagi vaqt goh vaqtning ma`lum bir bo`lagi beriladi. Ushbu matnning bahor vaqtida yozilganligi xronogik kod uchun asos va tollarning "ko`m-ko`k sochpopuklari, qizlarning mayda o`rilgan kokillari, muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning yuzlari kulishida ham xronogik kod uchraydi. Bunda ajoyib tasvirlar orqali Cho`lpon xuddi rassom singari yangilanish,yasharish,nafosat ayyomi bahorning portretini chizgandek go`yo.

2.Narrativ kodi - bu qiziqtirish kodi. Kitobxonni matnga qiziqtirish maqsadida qo`llanadi. Har qanday matn sarlavhasida albatta narrativ kod bo`ladi. Kecha - o`zbek xalqining boshiga tushgan azoblar, uqubatlar, zulm, zo`ravonlik talqini bo`lsa, kunduz - xalqning istiqlool orzusi, yorug` kunlarning kelishi bo`lgan umidlari.

Endi asarga qo`yilgan epigrafga e`tibor qarataylik. "Hamal keldi - amal keldi". Ushbu badiiy matnda ham xronologik kod – o`zbek xalq maqolida bahorning yurtga tashrifi vaqtida qo`llangan bo`lsa, narrativ kod - bahorda kimga qanday amal keladi, bahor nimasi bilan qiziq kabi jumboqlar yotadi.

**4.Ritorik so`roq kodi** - bunda so`roq berilib, javob talab qilinmaydi. Javob savoldan anglashiladi. "Muloyim qo`llari ivib, suvga aylangan keyin go`zal ko`zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko`rar ekan bu ko`kat ". Adabiyotshunoslikdagi tajohuli orif (biluvchining bilmagan bo`lib ko`rinishi) san`atini yuzaga keltiradi.

5.Etnografik kod - xalqning milliy mentalitetiga xos an`analar, qadriyatlar aks ettiriladi. Qizlarning qoshiga ko`rk bag`ishlagan o`sma, erkaklarning gulli do`ppisi, gajak sochlar, ro`mol popuklari o`zbek xalqiga xos qarashlardir.

6.Murojaat kodi - badiiy matn birliklarida biror shaxs, narsa va jonzotlarga murojaat qilinadi. "Hayot nega bu qadar go`zal va shirin bo`ladi bahorda?" (21) bahorga murojaat tarzda.Yoki asarda 15-16 yoshli Zebi erini qotili sifatida ayblangandan so`ng,onasining telba bo`lib qolganidan har kimga qizining chevarligi, xushovozligini maqtab "Yoriltosh" kuyida o`zi to`qigan baytlarni aytishi.

Zebi,Zebi,Zebona,

Men kuyingda devona.

Seni sotdi o`z otang,

Men bo`layin sadag`ang!

Zahar qilib oshingni,

Pirim yedi boshingni!

Zebi,Zebi,Zebonam!

Qayda qolding,dilbarim?..(272)

7.Ramziy kod - badiiy matnni ta`minlaydigan kod. Yuqorida keltirilgan badiiy matn to`lig`icha ramziy kodga misol bo`ladi. Ramz - Zebining yoshligi, go`zalligi, qahramon hayotida sevgi faslining boshlanganligiga ishora.

8. Tarixiy kod – bizga yaxshi ma`lumki,tarixiy kodda matn bo`laklarida moziyga oid ma`lumot, tarixiy shaxs nomlari tilga olinadi.

"...bo`shalgan qul singari erkinlik nash`asini kemira-kemira ilgari bosadilar"(21) bu matn tag ma`nosidan tarixiy kod alomatlarini ko`rishimiz mumkin. Jadidlarning mavjud tuzumni isloh qilib, erkinlikka intilishi g`oyalari aks ettirilgan.Shu o`rinda asarning boshqa o`rnida Miryoqub bilan Akbarali mingboshi o`rtasidagi savol-javobga e`tibor qaratib,fikrimizni isbotlaymiz.

- Jadid nimasi? Nima degan gap o`zi?
- Maktabni yoptirgan vaqtingizda aytib bergan edim-ku.
- Esda qolgan deysanmi?
- Jadid degani "yangi" degani bo`lsa kerak.Yurt orasida yangilikni rasm qilarmishlar...Yangi o`qish,yangi maktab,yangi urf-odat,yangi kiyim,har narsa yangi...

- Eskicha bo`lsa kimga zarari tegar ekan?
- Unisini bilmadim ...Ishqilib,Jadidlarning qasdi shu emish...(96)

9.Axloqiy kod- “Kecha va kunduz” romanida boshlanishidan oxiriga qadar axloqiy kod namunalari bir necha o`rinlarda qo`llangan.Asar boshida Zebining dugonasi Saltanat Enaxonlarnikiga mehmonga Zebini olib boorish niyatida ularnikiga keladi.Biroq Zebining onasi Qurvonbibini,otasi (Razzoq so`fi)namozdan qaytgandan so`ng izn so`rab ko`rishini aytadi.Bu ham sharqona odobning bir ko`rinishi.Yoki Akbarali mingboshi o`limidan keyingi,Zebining sud zalidagi harakatlarini esga olish kifoya.Miryoqubning rus ayol Mariya bilan bo`lgan munosabatlarida ham axloqiy kodni uchratish mumkin.

Badiiy matn cheksiz, chegarasiz bo`lgani uchun hali nomlanmagan kodlar ham ko`p. Tahlil vaqtida ularga o`zimiz ham nom topib nomlashimiz mumkin bo`ladi.

Uchinchi bobdagi tahlillar yuzasida xulosa qiladigan bo`lsak,quydagilarni aytish mumkin:

- Strukturalizmdagi kod atamasining tushunchasi yoritib berildi;
- Narrativ kod nima? Xronologik,murojaat,axloqiy,tarixiy,tabu...kodi nima? degan savolga uchinchi bobning birinchi faslida mutaxassislar tomonidan nomlangan kodlar mohiyati ochib berildi;
- Uchinchi bobning ikkinchi faslida bevosita “Kecha va kunduz” romani badiiy matnidagi kodlar tahlillar natijasida ochildi.
- Hali nomlanmagan kodlarni mohiyatidan kelib chiqib, o`zimiz nomlashimiz mumkin.

IV. Umumiy xulosalar

“Strukturalizm - (lotincha “structura”) tuzilish, bogʻlanish, muayyan narsalarning tuzilishi, qurilishi, tarkibiy qismlarining oʻzaro boʻliqligi. Tuproqning strukturasi. Soʻzning strukturasi. Boshqarish aparati strukturasi. Strukturani bilish – elementlarni, ularning oʻzaro aloqadorligini aniqlash, bu esa elementlar bir butunligining oʻziga xos tabiatini tushunib olishdir”¹. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida keltirilgan ushbu taʼrifga mushtarak jumlar Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasida ham keltirilgan.

“Struktura – tuzilishga tarkibiga oid struktur tilshunoslik. Olamda sifat jihatda turli sistemalarda strukturaviy munosabatlarning behisob koʻp darajalari, tiplari mavjuddir. Falsafa keyingi vaqtlarda tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlar sohasida struktur tahlil usullarini ishlab chiqdi”. Yuqoridagi ikki taʼrifdan ham strukturalizm jihatlari haqida qisqacha mulohaza berilgan. Struktura sodda qilib aytganda, yuksak ichki tartib tarkibidagi intizomdir. U sistema tushunchasi bilan chambarchas bogʻliq. Chunki struktura sistema qaror topishining tuzilishi va ichki shakli boʻlib, bu shakl mazkur sistema elementlari oʻrtasidagi barqaror oʻzaro aloqalarning birligi sifatida yuzaga keladi. Sistemaning oʻzi esa oʻzaro munosabat va aloqada boʻluvchi va muayyan yaxlitlikni, birlikni tashkil etuvchi elementlar toʻplamidir. Yuqoridagi tahlillardan soʻng mazkur tadqiqot ishida quydagi umumiy xulosalarga kelindi.

- Strukturalizm yangi fan. U XX asr oʻrtalarida Fransiyada vujudga kelgan;
- Klod Levi Stross va Rolan Bart tadqiqotlari strukturalizmning poydevorini yaratgan, keyinchalik qolgan Gʻarb mamlakatlariga tarqala boshlagan;
- Oʻzbekistonga XXI asr boshlarida kirib keldi va milliy mustaqillik yillarida oʻrganila boshlaandi;

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 574 б.

- Dilmurod Quronov, G'ayrat Murodov, Suvon Meliyev, Qurdosh Qahamonov kabi olimlar bu boradagi izlanishlarni olib bormoqdalar;

Rolan Bartning tadqiqotlari hozirgacha dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda. U yaratgan “Избрини работы”, “Поэтика и семиотика”, “Tillarning urushi”, “Muallifning o'limi”, “Matn lazzati”, “Bir hikoyaning struktural tahlili”, “Belgi tassurotining asaridan matn sari”, “Adabiyot va ramziy til”, “Mifologiyalar” asarlari o'quv qo'llanma sifatida foydalanilib kelinmoqda.

- “Kecha va kunduz” romanida faqatgina o'zbek xotin-qizlarining hayoti emas, balki butun jamiyat taqdiri qalamga olingan.

- Belgi munosabatlari quydagi guruhlariga bo'lingan:

a) paradigmatic munosabatlar

b) syntagmatic munosabatlar

c) binar oppozitsion

- "Kecha va kunduz" matni tarkibidagi badiiy obrazlar ham adabiy-estetik, ijtimoiy-falsafiy idealga ko'ra quyidagi vazifalarni bajaradilar, paradigmatic munosabatlarni shakllantirishda quydagilar asos qilib olindi.

1) mustamlakachilik davrida xalqning qoloqligi va jaholat, zulmning ustuvorligini ko'rsatish;

2) millat xotin-qizlarining ijtimoiy va shaxsiy hayotda huquqsizligini badiiy aks ettirish;

3) chor mustamlakachiligi istibdodining og'ir va fojiali oqibatlarini tasvirlash;

4) endigina shakllanib, rivojlanib borayotgan milliy uyg'onish va milliy taraqqiyotning sabab va omillarini oydinlashtirish.

- “Kecha va kunduz” romani badiiy matnidagi to'rtta paradigmatic qaror shakllantirildi.

- Syntagmatic munosabatlar o'xshashlikka emas, qo'shnichilikka asoslanadi.

- Tahlillar davomida romandagi Akbarali mingboshi va Miryoqub o'rtasidagi syntagmatic munosabatlar tahlil qilindi.

- Binar oppozitsiya badiiy matn bo`laklarida ifoda topgan belgilar orasidagi zidlikka asoslangan. Bunday qarama-qarshilik "Kecha va kunduz" romanida quyidagi shakllarda zohir bo`lgan.

- 1) tasvirlararo zidlik;
- 2) ta`limot, oqim, guruhlar o`rtasidagi qarama-qarshi munosabat
- 3) xarakterlararo ixtilof

- Uchinchi bob "Kecha va kunduz" romani matnidagi struktural kodlar masalasiga bag`ishlandi. Unda narrativ kod, xronologik kod, jumboq kodi, murojaat kodi, tabu kodi, tarixiy kod kabi bir qancha kodlar aniq misollarga tayanib yoritib berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 184 б.
2. Каримов И. А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-том. – Тошкент, 2000. – Б.504
3. Каримов И. А. Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда. Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 32 б.
4. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch». T.:«Ma'naviyat». 2008. 139- 140-betlar.
5. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 31 б.

Ilmiy adabiyotlar:

6. Аҳмедов Б. Тонг қоронғусида//Ўзбекистон адабиёти ва санъати. - 1988. 25 ноябрь;
7. Аҳмедов С. Машаққатли давр фарзанди//Совет Ўзбекистони санъати.- 1988.-N 6;
8. Barthes R. Fragments d'un discours amoureux. Paris, 1997. P.430
9. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества.- С.99-101
10. Бахтин М. М. Проблема текста. В его кн.: Эстетика словесного творчества – М: 1979.
11. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Тошкент: Ўзбекистон, 2002. Б.556
12. Дўстқораев Б. Бир мунозара тарихидан//Шарқ юлдузи.- 1989.- N 6

13. Фитрат. Адабиёт қоидлари. Аруз ҳақида / Танланган асарлар. 4-жилд.
– Т.: Маънавият, 2006.
- 14.Каримов Э.Олисдаги ёрқин юлдуз//Фан ва турмуш.-1988.-N 3
15. Каримов Н.ХХ аср адабиёти манзаралари. –Т: Ўзбекистон.2008.-Б.530
16. Каримов Н.Чўлпон.-Т: Ўқитувчи ,1991.- Б. 77
- 17.Лотман Ю. Структура художественного текста. – М.:Искусство,1970
- 18.Лутфиддинова Х.. Зеби Зебона...- Т:1993.- Б.38
- 19.Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. Б.730
- 20.Мамажонов С . Чўлпоннинг насрий ижоди// Ўзбек тили ва адабиёти.-
1991.- N 6
21. Мелиев С. Структурализм ва структур таҳлил ҳақида. –Ўзбек тили ва
адабиёти. –Тошкент. 2009. №2 Б 12.
- 22.Муродов Ғ.Тарихий роман: генезиси, кейинги тараққиёти.-
Т:Фан.2005.-Б.168
- 23.Норматов У., Болтабоев Ҳ. Янги назарий тамойиллар. // Жаҳон
адабиёти. – Т. – 2008 . – 3-сон. – Б 154 – 163.
- 24.Отаев Р. Тонг юлдузи шуълалари//Шарқ юлдузи.-1989.-N1.-Б.176-182;
- 25.Пэнто Р. , Гравитц М. Методи сом.наук. М., 1972, С.291
- 26.Қахрамонов Қ.Адабий танқидда структурал метод талқини. –Ўзбек
тили ва адабиёти. –Тошкент. 2009. №5 34-38 б.
- 27.Қодирова М. Чўлпон этикодини қозонган ғазал.–Ўзбек тили ва
адабиёти. –Тошкент. 2002. №5 59-61б.
- 28.Қуронов Д. "Кеча ва кундуз" романида характерлар психологизми:
Ф.ф.н....дисс.-Т.,1992;
29. Қуронов Д .Чўлпон насри поэтикаси. Т: -“Шарқ”. 2004,
-Б. 89-91
- 30.Кўшжонов М. "Кеча ва кундуз" романида образлар тизмаси//Ўзбек
тили ва адабиёти.-1992.- N3-4
31. Рашидов В.Чўлпонни эслаб // Адабиёт надири. - Б .211
- 32.Расулов А.Бадийлик- безавол янгилик. Тошкент: Фан.2007

33. Todorov TZ. Le Dernier Barthes // Poetiques, 1981, N47 P. 326
34. Холбеков М. Ролан Барт ва структур адабиётшунослик // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. 2013. №2 23-33б.
35. XX аср ўзбек адабиёти: XI синф учун дарслик. – Т., 1995. – Б. 136-138
36. Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. – Т: Ёзувчи, 1994, – Б. 16
37. Шарафиддинов О. Ижод ўғли // Ёшлик. – 1987. – N10; яна: Чўлпоннинг ижоди уўли тўғрисида // Шарқ юлдузи. – 1988. – N2;
38. Шарафиддинов О. "Кеча ва кундуз" // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1990. – 16 фев.
39. Шарафиддинов О. Чўлпон. – Т: Фан ва турмуш, 1991
40. Шарифиу Ж., Шарафутдинов О., Султонов Ю. "Кеча ва кундуз" ҳақида // Қизил Ўзбекистон. – 1937. – 6 авг.
41. Чўлпон. Яна олдим сўзимни. Тошкент, Ғ. Ғулом номидаги Адабиёти ва санъат нашриёти. 1991. 21-бет.
42. Чўлпон ва танқид. (илмий-танқидий мақолалар тўплами) Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти. 2004. – Б. 82
43. <http://litguide.ru>
44. www.jad.uz materillari.

O`quv-metodik adabiyotlar:

45. Butayev Z. Ingilizcha-O`zbekcha O`zbekcha-Ingilizcha lug`at. Toshkent: O`qituvchi, 2010 – B. 654
46. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 364 б.
47. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари (Олий ўқув юртлари учун дарслик). – Т.: Ўзбекистон, 2008.

48. Сулаймонов Ш., Тўхсанов К. Адабиётшунослик атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Бухоро, 2009. – 160 б.

49. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 574 б.

50. Yusupov B. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. Toshkent: “ Sharq” Nashriyor-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2010, -B.528

51. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” kitobini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma (Tuzuvchilar: Qo'chqorov R. va b.). – Toshkent: Yangiyul poligraph service, 2008. – 48 b.

52. <http://www.ziyouz.com> materiallari.

53. www.literature.uz

Badiiy adabiyotlar:

54. Чўлпон. Кеча ва кундуз. –Тошкент.: Шарқ, 2000. -254б

55. Кайковус. Қобуснома. - Тошкент.: “О'qituvchi” нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2006. -204б